

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**FILOLOGIYA FAKULTETI
O`ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI**

Qo`lyozma huquqida

Durdonaxon Ubaydullayevaning

“HALIMA AHMEDOVA SHE'RIYATI POETIKASI”

**5220100 – Filologiya (o`zbek filologiyasi) ta'lim yo`nalishi bo'yicha bakalavr
akademik darajasini olish uchun yozgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

f.f.d., prof. D. Quronov

ANDIJON – 2017

Himoyaga ruxsat beraman

Filologiya va tillarni

o`qitish fakulteti dekani

f.f.n., dots. U.Rahimov

Himoyaga ruxsat beraman

o`zbek adabiyoti kafedrası

mudiri

f.f.n., dots. H.Karimov

Himoyaga tavsiya qilaman

Ilmiy rahbar

f.f.d., prof. D.Quronov

Himoyaga tavsiya qilaman

Rasmiy taqrizchi

Nabi Jaloliddin

“Andijonnoma” gazetasi bo`lim boshlig`i.

O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a`zosi.

MUNDARIJA

Kirish4

1- bob. Shoiri ijodidagi yetakchi poetik obrazlar.....

2-bob. An'anaviy poetik obrazlarning yangicha talqini

3-bob. Janr xususiyatlari va ritmik o`ziga xoslik

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

K I R I S H

Mavzuning dolzarbligi. Xalqning, millatning o'zligini tanish, shaxs erkinligi tuyg'usini ifodalashda she'riyatning roli va o'rni beqiyosdir. San'atning betakror salohiyati ham shundaki, u ayni shu davrdagi odamlar ongi-shuurini, hayot nafasi va jamiyat ehtiyojlarini tasvirlanayotgan mazmunga singdirib yuboradi. Natijada o'sha ifoda ob'ekti barcha xalqlar va elatlarning nazarini tortadigan, e'tiborini qozonadigan mohiyati bilan umumbashariy qadriyat maqomiga ega bo'ladi. Xususan, so'z san'ati o'sha tasvir ob'ektini o'zining poetik obraz tizimiga aylantirar ekan, voqelikni, odamlar taqdirini badiiy tadqiq etarkan, ularni go'zallik qonuniyatlari nuqtai nazaridan qayta yaratadi. Shunisi muhimki, she'riyat har doim tasvir ob'ektiga ezgulik, go'zallik, adolat va h.k. bashariy qadriyatlar asosida munosabat bildiradi. Aynan ana shu mohiyati bilan san'at asari umumbashariy mazmun kasb etadi. Badiiy asarning boqiy qadriyat maqomiga ega bo'lishi, e'zoz - ehtirom ko'rishining boisi ham shunda. Mustaqil mamlakatimizning birinchi prezidenti I.A.Karimov istiqlol adabiyoti oldida turgan vazifalarni, xususan, bashariy qadriyatlar yaratishdek muqaddas burchini alohida ta'kidlaganlari bejiz emas: "Ijod-bu o'zini qiynash, mashaqqat chekish, huzur-halovatdan voz kechish, tom ma'noda fidoyilik demakdir. Chinakam ijodkor odamlarning dard-u g'ami bilan yashashi, xalq ichiga kirib borishi, o'zi uchun ilhomni, yangi mavzularni shu hayotdan, unda bo'layotgan o'zgarishlardan olishi kerakligini barchamiz yaxshi bilamiz".¹ Darhaqiqat, istiqlol davri badiiyatining istiqbolini yangi tarix yaratayotgan millatning o'tmishi, buguni va kelajagi tashkil etadi. Bugungi kun odamlarining istiqlol manfaatlaridan kelib chiqib, boqiy moddiy va ma'naviy boyliklar bunyod etishdek ezgu yumushlari asos vazifasini o'taydi. Binobarin, ma'naviy, milliy-umuminsoniy qadriyatlarni ulug'lagan, qaramlikka qarshi asarlarga boy adabiyot, oxir oqibat iqtisodiy - ma'naviy kamolot uchun xizmat qiladi. Zero, chinakam she'riyat hayotining, inson ruhiyatining eng murakkab va

¹ Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. Toshkent, "O'zbekiston", 2009, 6-7-betlar.

chigal tomonlarini favqulodda sa'natkorona aks ettira oladi. Darhaqiqat, bugungi kunda bu ezgu an'anani davom ettiruvchi she'riyatimiz har jihatdan kamolga yetib, o'z taraqqiyotida yangi bosqichga ko'tarildi, ko'p qiyinchiliklarga, ziddiyatlarga, ojizliklariga qaramay, nazmimizning eng yaxshi namunalarida namoyon bo'layotgan yangi, hayotbaxsh tamoyillar uning ertasiga katta umid bilan qarashga imkon bermoqda. Ming yillar davomida Sharq adabiyoti an'analari ta'sirida rivojlanib kelgan o'zbek adabiyoti XX asrda mazmunan va shaklan qator yangilanishlar jarayonini boshdan kechirdi. Bu davr o'zbek ijodkorlari mumtoz adabiyot an'anelarini davom ettirish bilan birga, jahon adabiyotining hayotbaxsh tajribalarini ham o'z ijodlariga singdira boshladilar.

Istiqlol arafasida va undan keyingi davr adabiyotida bu xususiyat yanada kuchayganligini she'riyatimiz namunalari misolida ham ko'rish mumkin. Har bir davr, har bir avlod, har bir san'atkor ideali xalq hayoti haqiqatlarini idrok etish hamda ertangi kunga nazar tashlash asosida yuzaga kelar ekan, u xoh avlodlarning bo'lsin, xoh yakka shaxslarning bo'lsin, ma'naviy izlanishlari asosida bunyod bo'ladi. Hozirgi kun nazmi "ko'ngil she'riyati" deb atalib kelayotgani bejiz emas, mustamlakalik davriga xos bo'lgan "buyrilganini yozish" mustaqillik davriga kelib tamoman o'z o'rnini ijodkor xohishiga, tom ma'noda aytganda ko'ngil irodasiga bo'shatib berdi. Ana shunday qalb amri ila qalam tebratib kelayotgan ijodkorlardan biri Halima Ahmedovadir. Shoiraning hayotni poetik obraz orqali tadqiq etish uslubi zamonga mos ravishda yangilanib, bu o'zgarishlar she'rlarining ruhida ham, shaklida ham namoyon bo'lmoqda.

Shoir bo'lish qiyin, shoir bo'lish og'ir, Halima Ahmedova kasbiga ilohiy ruh bilan kirgan she'r ishqi va qadrini yuksak saqlab, unga butun qalb qo'rini bag'ishlab, she'riyat bo'stonida o'ziga munosib iz qoldirish uchun astoydil intilmoqda.

Shoiraning yangicha talqindagi amaliy she'riyati kitobxon qalbiga yangi nafas olib kirdi, uning tiniq ohanglari kitobxonlar qalbida aks-sado berib kelmoqda.

H. Ahmedovaning ijodi o'zining ijtimoiy-estetik ahamiyati bilan, olamni va odamni badiiy va falsafiy tushunishi hamda tushuntirishi bilan ajralib turadi. Tabiat

va jamiyat hodisalarini, ruhiy olam sir-sinoatlarini idrok va ifoda qilishdagi obrazlilik, hayotiy detallarning yorqinligi, poetik obrazlarning ma'nodorligi va serqirraligi bilan ruhimizni ma'nan boyitadi, hamda yangi o'zbek she'riyatining rivojlanishiga munosib hissa qo'shayotganligini ko'rsatadi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari. Bitiruv-malakaviy ishdan ko'zlangan asosiy maqsad – H.Ahmedova she'riyatida faol qo'llangan poetik obrazlarni tadqiq etish, hamda unda qo'llangan badiiy tasvir vositalarining takrorlanmas va o'ziga xosligini ochib berishdan iborat.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda, quyidagi vazifalarni yoritish va amalga oshirish nazarda tutiladi:

- H.Ahmedova she'riyatida poetik fikrning yangi ekanligini o'rganish;
- shoiraning poetik obraz yaratishda badiiy detallar qo'llash uslubini aniqlash;
- she'riy namunalardagi poetik obrazlarni tasniflash;
- mumtoz adabiyotimiz vakillari tomonidan qo'llangan an'anaviy poetik obrazlarning H.Ahmedova tomonidan qo'llangan yangicha talqinini tadqiq qilish;
- she'rlarda qo'llangan poetik obrazlarning xalq og'zaki ijodi namunalari bilan aloqadorlik darajasini tahlil qilish;
- she'rlarning kompozitsion qurilishini o'rganish;
- shoira ijodida qo'llangan lirik janrlarni o'rganish va ularning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib berish kabilar.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. H.Ahmedova she'riyati poetikasi o'zbek mahalliy matbuotida, shuningdek, ayrim ilmiy-tanqidiy maqolalarda o'rganilgan. Biroq, shoira ijodi alohida tadqiqot sifatida yoki monografik planda o'rganilmagan.

Tadqiqotning ob'ekti va predmeti. Tadqiqotimizning asosiy ob'ekti sifatida shoiraning "Erk darichasi", "Tungi marvaridgullar", "Umid soyasi", "Nigoh qiblasi" nomli to'plamlari, turli jurnallarda chop etilgan she'rlari olindi. Shuningdek, o'rni

bilan shoirlar, yozuvchilar, adabiyotshunos olimlarning maqolalaridan hamda asarlaridan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va hajmi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat bo`lib, jami 56 sahifani tashkil qiladi.

1. Shoira ijodidagi yetakchi poetik obrazlar

Hozirgi kunda o'zbek adabiyoti maydonida ko'plab qalami hissiyot siyohiga qongan, she'rlari muhabbat sharobi mastligidan yaratilgan shoir-u shoirlar ko'p. Halima Ahmedova ham xuddi ana shunday ijodkorlardan biri. Uning asarlarini o'qir ekansiz beixtiyor she'rlaridagi g'am-alamning dardkashiga aylanisiz, qalbingiz to'rida yashirilib yotgan hissiyotlar jo'shqinlashgandek bo'ladi. Adabiyot ulug' bir bo'ston bo'lsa, she'riyat gulistonida har bulbul o'ziga xos honish aylaydi. H.Ahmedova ijodi o'zining takrorlanmas o'xshatishlarga boyligi, muhabbatni taqdir tuhfasini ekanligiga ishonтира olishi bilan she'riyat ixlosmandlarini maftun etadi. Uning she'rlarida o'xshatish, qiyos qo'llanmagan satr yo'qdek. Bu qiyos va o'xshatishlar hali hech qaysi ijodkor asarida qo'llanmagani bilan birgalikda o'zida juda katta ma'no ifodalashi bilan hayratga soladi. Uning har bir satrida o'zgachalikni, hali hech bir asarda uchratilmagan jo'shqinlikni va hissiyot jozibasini ko'rasiz. Bir so'z bilan aytganda, shoira nigohi faqat va faqat qalb atalmish makon tomon qaratilgan. U qalbnı "nigoh qiblası" deb biladi. H.Ahmedova she'rlarida mungli nola, bitmas dard sababchisi hamisha muhabbatdir. Uning iztirobga yo'g'rilgan she'rlari har qanday "yuragi" bor insonning hislarini junbisha soladi, ularga jo'shqinlik baxsh eta oladi. Shoira ko'pchiligimizga oddiydek tuyulgan hodisalardan yangicha ruh va harorat topadi, ularni shunchaki aytib qo'ya qolmay, o'zigagina xos bo'lgan uslub bilan ifodalaydi. Uslub ulkan hayotiy tajriba sifatida baholanadi, u ijodkorning ovozi, adabiy qiyofasini ko'rsatadigan belgidir. Shu nuqatai nazardan qaraydigan bo'lsak, uslub ijodkorning hayotga, odamlar taqdiriga o'ziga xos idrok bilan yondashishi, qalbidagi kechinmalar va izhorlarni aks ettirishda boshqalardan farq qiladigan jihatidir. She'r inson qalbining borliqdagi tasviriga o'xshaydi. Ana o'sha tasvirning qanchalar go'zal hamda jilvador bo'lishi ijodkor qo'llaydigan, qo'llay biladigan poetik obrazlarga bog'liq. H.Ahmedovani vatan, ona, muhabbat, hijron, sog'in, armon mavzularida bitilgan she'rlarini o'qir ekansiz, qalb ko'zingiz qarshisida hissiyotlar so'z "mo'yqalami" vositasida tasvirga aylanadi. Buning boisi esa, shoira obraz yaratishda o'ziga xos uslubga ega. Uning

she'riyatida quyosh "kuladi", maysalar "chuchkiradi", daraxt "azob chekadi", osmon "yig'laydi", shamol esa "ertaklar aytadi". Bu kabi poetik obrazlar bugungi she'riyatning badiiy ko'chimlarga bo'lgan ehtiyojining naqadar kuchayganidan dalolat beradi.

H. Ahmedova lirikasi betakror obrazlar silsilasidir. Shoir har bir fasl, daraxt, shamol, barg, tun, xazon, bog`, gul kabi poetik obrazlar zahiriga yangidan- yangi ma'nolarni jo'etadi, takrori topilmas fikrlar aytib, kutilmagan hayotiy xulosalar chiqaradi. O'z fikrlari va hissiyotlariga o'quvchi ong-u shuurini ham ergashtirib, tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatadi. Natijada she'rning pafosiga uni ham sherik qiladi. Shu bois aytish mumkinki, shoiraning har bir yaratgan yangi obrazi- yangi bir betakror hilqat. Halima Ahmedova lirikasida poetik obrazlarning kamalakdek turfa jilolari bor-ki ularning har biri she'rxonni o'ziga maftun eta oladi. Obraz bu-hayotning bir parchasi. Oddiy emas, hayotiy voqelik singdirib yuborilgan, ammo ijodkor tomondan ideallik qonuniyatlari asosida ongda qayta ishlangan parchasidir. Shoir obraz yaratishda o'ziga xos uslubiga ega. Uning she'riyatida obrazlar shakllanishida detallarning o'rni katta. U avvaliga she'rda biror detal qo'llaydi, unga ma'lum vazifa yuklagan bo'lsa, she'rdan she'rga uning ma'no ko'lami kengayib boradi, natijada obrazga aylanadi.

H. Ahmedova yaratgan poetik obrazlar orasida kuz obrazi alohida o'rin tutadi. Shoiraning bir qator she'rlarida kuz o'zining turli ma'no qirralari ila "jilolanadi". Yashillikning sog'inchga aylanishi, maysalar qonidagi hayajonning tinishi, daraxtlarning yelkasida og'ir dardni ko'tarib titrashi, yoshlikning o'tishi, kuz fasli-keksalikning beso'rov kirib kelishining ramziy ifodasi bo'lib xizmat qiladi. Agar kuzning kelishini yuqoridagi badiiy ko'chimsiz ifodalasak, she'r oddiy so'zlarning o'zaro bog'lanishidan iborat bo'lib qoladi. So'zlarni she'r sifatida his-tuyg'u bilan yo'g'rilgan holda ushlab turuvchi poetik obrazlar hisoblanadi:

Yashillik aylanib borar sog'inchga,

Maysalar qoniga tinar hayajon.

Yelkasida ulkan dardni opichlab,
Daraxtlar titraydi g`amgin bezabon.²

Tabiatda fasllar almashinuvi bu tabiiy va qonuniy hodisadir. Ammo, shoira ushbu jarayonni inson hayotiga nisbatan tatbiq etadi, tabiatdagi har bir narsaga tirik insonga xos dard-alam, sevinch va qayg`u ko`zi bilan yondashadi. Tabiat hodisalari o`zicha emas, balki, o`zga ma`noda berilsa unga inson ruhi, xarakteri singdirilsa, shuning oqibatida she`rga ko`chma obrazlar kirib keladi. Yam-yashil dunyoni tashlab mayus ketib borayotgan quyosh inson ruhiyatida yuz berayotgan evrilishlarni ifodalaydi. Har bir narsada yuz berayotgan bunday o`zgarishlar sababi oltin yaproqlarini sanab turgan kuz ekanligi quyidagi misralarda nozik ifodalangan:

Yam-yashil dunyoni hijronga tashlab,
Quyosh ketib borar o`ychan va mayus.
Qo`rquv ichra, asta to`kilayotgan,
Sariq yaproqlarini sanab turar kuz.

Poetik asoslangan obrazlar kishi ruhiyatida yuz berayotgan o`zgarishlarni, his-tuyg`u ifodasiga o`rab beradi. Agar yuqoridagi satrlar kuz kelib quyoshning tafti pasaydi, barglar to`kilib, daraxtlarda sanoqli qoldi, tarzida ifodalansa, she`rdagi obrazlilik barham topadi. Obrazli fikrlashga, obrazli tasavvurga asoslangan shoira idroki bunga yo`l qo`ymaydi.

Shoira ijodida yetakchi poetik obrazlardan biri bo`lgan kuz quyidagi she`rda ham o`zining ajib jilvasi ila jilolanadi:

Bog`larning tushida yam-yashil dunyo,
Quyosh aytolmaydi eng so`nggi so`zni.
Barcha seplarini sochib turnalar,
Olib qaytmoqdalar qariqiz-kuzni.

Yozdan keyin kuzning, kuzdan so`ng esa qishning tabiat quchog`iga mehmon bo`lib kirib kelishi mutlaqo qonuniy hodisadir. Ayni mana shu jarayonni shoira

² Ahmedova.H. Tunggi marvarid gullar.Toshkent,: G`afur G`ulom AS, 1988, 33-bet

bog`larning tushlariga aylangan yashillik, quyoshning eng so`nggi so`zini aytolmasdan (juda tez fursatda) botishi, turnalarning qanotlarini ya'ni "seplarini" yoygan holda uchib ketishi orqali kuzning ham o`z o`rnini qishga bo`shatayotganini juda go`zal tasviriy ifodalar bilan ko`z oldimizda jonlantira olgan. Kuz – qish va bahorning chegarasi. Agar qishga biroz shafqatsizlik bo`lmasa, kuz ranginlik va bir xillik, muhabbat va yolg`izlik orasidagi jarayondek tuyulaveradi. Xuddiki bahorning qaynoq taftini sog`ingan dillar kuzga nola qiladi. Shu boisdan quyida keltiriladigan she'rni shoira "Kuzning so`nggi istagi" deb nomlaydi. Kech kuzda borliqni qoplab olgan tuman pardasi daraxtlarni yashirishga intilayotgan qishning nafasi edi. Kuzning so`nggi nafaslarini yorqin tasavvur etish uchun shoira tuman obraziga murojaat qiladi. Bu esa horg`in kuz fasli bilan vidolashayotgan inson ruhiyatining timsolidir.

Bog`lar qismatini yashirmoq bo`lib,
Oppoq ko`rpalarni yopadi tuman.
Zangor xayollarning bag`riga kirib,
Ularni aldaydi ayoq-Yosuman.

Shoira lirik qahramon ruhiy kechinmalarini ta'sirchan yetkazish uchun badiiy ko`chimlar tasviriga katta o`rin beradi. Uning xayolot olamida kuz daraxtlarni aldabgina, makr-hiyla bilan yashillikni bag`riga yashirmoqchi bo`lgan Yosumanga o`xshatiladi, bu ishda esa u bilan doim birga bo`lgan tuman yordamga keladi. Kuz faslining etni junjiktiruvchi tongi o`tib borayotgan yashillikning ma'sum dodini tinglaydi. Bunday damlarda inson xayoli sershovqin va xushchaqchaq o`tgan yoz damlarini sog`inib eslaydi. O`tib borayotgan inson umrining kuzi, ortda qolgan sershovqin, goh quvonchli, goh g`amnok bo`lgan hayot yo`li, uni o`ylashga chuqur mushohada qilishga undaydi. Inson umrining bu qismiga yetib kelgunicha boshidan turli sinovlarni o`tkazadi. Xayolini tuman qoplab ba'zan xatolarga ham yo`l qo`yadi. Oromla o`tgan yoqimli damlarni-da qumsaydi. Uning sog`inchlarini, oh-nolasini tinglaguvchi, anglab yetuvchi hamdard topilmaydi. Shoira nazdida shunday ruhiyatdagi inson qalbi bo`m-bo`sh dalalarga o`xshaydi. Bo`m-bo`sh qolgan

yurakka hatto sog`inch ham begonadek tuyuladi. Ushbu o`rinda qo`llangan sog`inch poetik obrazi esa mazmunni mohirona ifodalanishida yetakchi rolni o`ynaydi:

Tong sovuq kiftini ufqqa tirab,
Zangor xayollarning dodin sezadi.
Bo`m-bo`sh dalalarda yolg`iz tentirab,
Yurakdan uzilgan sog`inch kezadi.

Yashillik faslida har qanday daraxt fusunkor va jozibali ko`rinadi. Kuz faslida esa daraxtlar barglaridan ayriladilar, ularsiz shumshayib, huvvillab qoladilar. Bunday onlarda daraxtlarning e`tiborsiz qolishini yurakdan quvilgan qiz timsoli bilan ifodalaydi. Yolg`izlik va ma`yuzlik ikki obrazga ham xos xususiyatdir. Ular “dardli to`lg`onadi”lar, kuz shamoli tebratgan daraxt nola bilan ko`z yosh to`kib o`zini har yoqqa urayotgan qizni eslatadi. Kuzning horg`inlik bilan asta-sekin o`tishini shoira qiynalib jon berayotgan yaratiqqa o`xshatadi.

Daraxt-yuraklardan quvilgan bir qiz,
Dardli to`g`onadi, chekkanicha oh.
Va hamon qiynalar jon berolmay kuz—
Yelkasida ulkan yam-yashil gunoh.

Oxirgi bandda qo`llangan “yuraklardan quvilgan bir qiz”, “jon berolmayotgan kuz”, “yam-yashil gunoh” kabi poetik ko`chimlar lirik qahramon ruhiyatida yuz berayotgan o`zgarishlarni obrazli tasavvur etishga yordam beradi. Inson ruhiyati yechilmas jumboq. Hech qanday fan hali uni to`liq tasvirlay olmagan. Badiiy ijodning o`ziga jalb etuvchi jihatlaridan biri, uning inson ichki olamidagi qorong`u va mavhum tilsimlarni ochish qobiliyatidir. H.Ahmedova ana shu jihatni yanada boyitgan. Chunki, u inson ruhiyatida ro`y beruvchi jarayonlarga mos tabiat hodisalarini topa biladi, hamda ikki jarayonni uyg`un holatda o`z she`rlarida qo`llaydi. Bunday ifodalashning yutug`i shundaki, biz qalblarda jo`sh urayotgan tuyg`ular isyonini bilmasligimiz, og`rig`ini tatimagan, azobida yashamagan bo`lishimiz mumkin. Ammo, tevarak-atrofdagi sodir bo`layotgan tabiat hodisalarini ko`rganmiz, ozmi-ko`pmi xabardormiz. Buni qalbdan his qilgan iste`dodli shoira

inson ruhiyatini bevosita tabiat bilan bog`lab, qalb kechinmalarini mohirona ifoda etadi.

Kuzning ilk shamoli yuzlarim o`pdi.
Nedir aytmoqchiday qiynaldi xazon.
Umrinni sanagan ayg`oqchi cholday
Meni kuzatardi sokin bargrezon.

Kuz fasli inson umrining keksalik, sarhisob davriga o`xshatiladi. Keksalik eshik qoqib kelar ekan yuzdagi porloqlik o`z o`rnini so`lginlikka bo`shata boshlaydi. Yengilgina ajinlar ham yuzga “qo`nib boradi”. She`rda keltirilgan “kuzning ilk shamoli” yuzlarni “o`pishi” ayni mana shu jarayonni obrazli ifodalanganidir. Ushbu o`rinda shamol poetik obrazining qo`llanishi mazmunni anglashga turtki vazifasini o`taydi. Lirik qahramon yuzlarini o`pgan shamol xazonlarni ham o`z kuyiga jo`r bo`lishga undaydi. Xazonlar nenidir aytmoq istaydilar-u shivirlashdan nariga o`tolmaydilar. Kuz tilga olinar ekan, u bilan birga xazon yaproqlari ko`z oldimizga keladi. Chunki, xazon kuz bilan birga bahor, yoz ya`ni inson umrining yoshlik chog`larini ham yodga soladi. Xazon yil fasllari almashinuvi natijasidir. Faqat xazonning ibtidosi bahor, intihosi kuzga to`g`ri keladi. Xazonga aylangan barglar asta-asta daraxt shoxlaridan uzilar ekan, lirik qahramonning ko`z oldidan birin-ketin o`tib borayotgan kunlari, umr sanog`i kabi o`ta boshlaydi.

Bu ulkan makonda aylandi ruhim,
Giyohlar titrarakan sirli, qayg`uvor,
Seskandim. Qarshimda qarab turardi
Bolasin sog`ingan onaday mozor.

She`rning falsafiy mazmuni oxirgi bandda yaqqolroq ko`zga tashlanadi. Yengilgina esgan kuzning ilk shamoli ta`siridan har giyohning sirli va qayg`uli titrashi, kelgusida ularning vujudi kuzning xazonli kunlarida toptalib ketishini anglab qilayotgan nolasidek tuyuladi. Ibtido bor ekan, umrning intihosi ham mavjud ekanligi mozorning sog`inch bilan qarab turishi tasviri bilan o`z isbotini topadi. Kuz

poetik obrazi bir vaqtda ham tabiat fasli, ham keksalik faslining ramzi sifatida she'rda mohirona qo'llanganining guvohi bo'lamiz.

Daraxtlar—yorlari unutgan qizlar

Boshiga hijronrang ro'mol o'raydi.

Jajji qo'lchalarin falakka cho'zib,

Maysalar quyoshdan madad so'raydi.

Mazkur she'riy parchada kuz faslining kirib kelish jarayoni nihoyatda mohirona tasvirlangan. Kuz kirib kelar ekan, eng avval darxt bargaliga o'z kuchini ko'rsatadi. Sarg'ish tus berib, qovjiratib yuboradi. Shoirana mana shu tabiiy jarayonga hamohang insoniy ko'rinishni topa biladi. Ya'ni, daraxtlar, yorlari unutgan qizlarga tashbehlanadi. Ko'z oldimizda sarg'imtir tus olgan daraxt hamda muhabbatdan ozor chekkan ayol tasviri yonma-yon gavdalanadi va bir-butun tasvirga birlashib ketadi. Daraxtlarning "hijronrang ro'mol o'rashi" esa favqulotda topilmadir. Bu yerda xazoniy tus hijroniy alamning borliqdagi ko'rinishiga aylanadi. Tabiatning insonga ko'rsatuvchi eng buyuk ta'sir kuchlaridan biri bu fikr va his-tuyg'u uyg'otishidir. Ijodkor mana shu ta'sir kuchidan juda faol foydalana biladi. Darhaqiqat, ijodkor tomonidan qo'llanilgan poetik obrazlar tabiatdan olinsa va ularga singdirilgan mazmun chuqur ma'noli bo'lsa, inson ruhiyati bilan tabiatdagi o'xshashlik bir-birini to'ldiradi va boyitadi. Halima Ahmedova aynan shu yo'ldan boradi, u osmonni bevafo, o'zgaruvchan yorga, barg va hazonni oshiq ko'ngilga, daraxtlarni sadoqatli va vafodor do'stlarga aylantiradi. Shoirana tabiatning bir bo'laki bo'lgan daraxtni sadoqat va mardlik kabi xususiyatlarga ega bo'lgan obraz sifatida baholaydi. Nega aynan daraxt? Bu savolning javobi aniq. Negaki, daraxt o'z o'rnini o'zgartirmaydi, hamisha bir joyda "yashaydi". Unib o'sgan joyini tashlab ketmaydi, ana shu joyda qishni (og'ir kunlarni) ham, yozni (baxtli damlarni) ham o'tkazadi. Shoirana ijodida daraxt sadoqat ramzi sifatida qo'llangan satrlarga e'tiboringizni qaratmoqchiman:

Tunda meni mehmon qiladi osmon,

Yulduz tortib eski dasturxoniga.

Mening esa ketgim kelar juda ham,
Sodiq va mard daraxtlarning yoniga.

Tunda osmon va yulduzlar qanchalik o`z yoniga chorlamasin mahzun ko`ngil
o`zining sadoqatli va mard do`stlari daraxtlar yoniga borishni xohlaydi.
Yuksaklardan o`rin olgan yulduzlarning baland-baland va`dalaridan ko`ra lirik
qahramon uchun eng quyida yashasa ham sadoqat ramzi bo`lgan daraxtlar azizroq.
U mardlik va sadoqatni har nedan yuqori baholaydi.

Ko`z yoshingni artib ol, deya
Xazonini tutadi daraxt.
Meni kuzga topshirib qo`yib,
Sen qaylarda qolib ketding baxt?

Kuz-- g`am-anduh timsoli. Qalbda dod solayotgan tuyg`ular ko`zlardan yosh
bo`lib tomadi. Lirik qahramonning doimiy “dardkashi”, “do`sti” bo`lgan daraxt esa
vujudining bir parchasi bo`lmish xazonni “ko`zyoshlaringni artib ol, deya” “tutadi”.

Halima Ahmedova she`riyatida faol qo`llangan poetik obrazlardan yana biri
quyidagi she`rda o`zining o`zgacha ifodasiga ega bo`lgan:

Dunyoning bobosi savdogar o`tgan,
Shundanmi savdoga juda o`ch u ham.
Odamlardan shodlik sotib olar-u,
Ko`hna savatida sotib yurar g`am.

Xalqimiz orasida insonga ajdodlari kim bo`lganligiga qarab baho beriladi.
Nasli surishtiriladi. Bu qadriyat millatimizning ich-ichiga singib ham ketgan.
Keksalar odatda yosh avlodga “kimsan?” deb emas, “kimning farzandisan?” deya
savol beradilar. Shoir a yuqoridagi she`riy parchada mana shu “...zotiga tortish”
tamoyilidan dunyo obrazini yaratishda mohirona foydalanganining guvohi bo`lamiz.
“Bobosi savdogar o`tgan” dunyo ko`z oldimizda g`am-u qayg`uni savdoga
solayotgan dallol misol namoyon bo`ladi. Shoir a doimiy o`xshatishlardan qochadi,
sinovli, ayanchli, shafqatsiz kabi sifatlarni o`ziga jo etgan dunyo bu safar savdogar

timsolida gavdalanadi. Dunyoning qadimiy ekanligi “ko`hna savati” orqali ochib beriladi. Detal vazifasini o`tayotgan savatga ko`hna sifati qo`shilar ekan, dunyo savdosini bugun yoki kechadan boshlagan emasligi qadim-qadimdan bu uning mashg`uloti ekanini ochib beradi.

Dunyoning fe`li-ku bizlarga ayon,
Bir ko`zi yig`laydi, biri kuladi.
Umrimiz savdolar ichida o`tsa,
Axir ayting qanday chidab bo`ladi.

Avval boshdan aytilganidek, dunyoning bunday o`yinlari ko`hnalikka aloqador. Uning bir yuzi “kulsa”, bir aylangandayoq ikkinchi yuzi “yig`laydi”. Lirik qahramonni larzaga solayotgan holat dunyoning savdo o`yinlari emas, aksincha, mana shu savdolarga insoniyatning o`zi ham bosh bo`lib kelayotganidadir. Butun umr savdoga qo`yilgani uni larzaga soladi, qiynaydi, oxir oqibat chidab bo`lmas holga olib boradi.

Hayotning bahosi qimmatdan-qimmat,
Bo`g`izni to`ldirib turganda faryod.
Qanday yashash mumkin pana-panada
Yaqin do`stlarimiz sotganda hayhot!

Lirik qahramon hayotni, har kunni nimadandir voz kechib dunyodan sotib olayotgandek bo`la boshlaydi. Hayotning qimmat bahosidanda uni bo`g`ziga tiqilib qolgan savdoyi umr g`ashligini, ho`rligini keltira boshlaydi. Oxirgi bandda ijodkorning badiiy niyati, she`rning to`liq mazmuni yuzaga chiqadi. Bir ko`zi kulgan-u biri yig`lagan savdogar dunyo va nihoyat sotqin do`st timsoliga, ramziga aylanib qoladi. She`rning umumpoetik mazmuni “bobosi savdogar o`tgan”, “ko`hna savatida sotib yurar g`am”, “bir ko`zi yig`laydi, biri kuladi”, “yaqin do`stlarimiz sotganda” kabi birikmalar orqali yuzaga chiqadi. Keltirilgan birikmalar orqali ijodkor dunyo obrazini to`laqonli ochib bera oladi va dunyo jonli tasvir kabi ko`z oldimizda namoyon bo`ladi.

Halima Ahmedova ijodiga nazar tashlar ekanmiz uning har bandi o`zgacha o`xshatish-u qiyoslarga boy ekanligi ko`zga tashlanadi. Ayni mana shu o`rinli tashbehtarlar ila u yaratayotgan obrazlar jonli tasvirga ega bo`ladi.

Ijodkor ko`pincha o`z istetik idealini, badiiy g`oyasini tabiatdan olingan ramzlar vositasida ifoda qiladi. Har bir shoirning poetik olamini ko`rsatadigan betakror obrazlari bo`ladi. “Binafsha senmisan, binafsha senmi” deganda Cho`lpon esga keladi. “Na`matak gullari” Oybekdan darak beradi. “O`rik gullaganda”- Hamid Olimjon ta`biri, “Majnuntol tagiga o`tqazing meni”- Mirtemirning shoh satri. Bunday obrazlar gohida shoir dunyosining belgilovchi xususiyatidek taassurot qoldiradi. H.Ahmedova she`rlarida esa “daraxt” obrazi ko`p uchraydi. Goh “Gullashni daraxtga o`rgatgan” lirik qahramon, gohida “Sodiq va mard daraxtlarning yoniga” ketgim kelar deya nola qiladi. Uning she`rlarida daraxtlar so`zlaydi: aldamaydi, sotmaydi, xiyonat nima bilmaydilar. Daraxtlar “yuraklardan quvilgan, bir qiz”ga o`xshatiladi, shoira daraxtlar dardini anglay biladi, ular bilan sirlasha oladi.

H.Ahmedova she`riyatida tabiatning har bir bo`lagi, har bir she`rda biri ikkinchisini takrorlamay, uchinchi to`rtinchisidan umuman o`zga, yangi ma`no va fikr tashiydi, jonlantiriladi. Birgina daraxt obrazining o`zini rang-barang ma`nolarda qo`llaydi.

Shoira tabiatning bir bo`lagi bo`lgan daraxtni sadoqat va mardlik ramzi sifatida qo`llaydi. Nega aynan daraxt? Bu savolning javobi aniq. Negaki, daraxt o`z o`mini o`zgartirmaydi, hamisha bir joyda “yashaydi”. Unib o`sgan joyini tashlab ketmaydi, ana shu joyda qishni (og`ir kunlarni) ham, yozni (baxtli damlarni) ham o`tkazadi. Shoira ijodida daraxt sadoqat ramzi sifatida qo`llangan satrlarga e`tiboringizni qaratmoqchiman:

Tunda meni mehmon qiladi osmon,
Yulduz tortib eski dasturxoniga.
Mening esa ketgim kelar juda ham,
Sodiq va mard daraxtlarning yoniga.

Tunda osmon va yulduzlar qanchalik o`z yoniga chorlamasin mahzun ko`ngil o`zining sadoqatli va mard do`stlari daraxtlar yoniga borishni xohlaydi. Yuksaklardan o`rin olgan yulduzlarning baland-baland va`dalaridan ko`ra lirik qahramon uchun eng quyida yashasa ham sadoqat ramzi bo`lgan daraxtlar azizroq. U mardlik va sadoqatni har nedan yuqori baholaydi.

Ko`z yoshingni artib ol, deya
Xazonini tutadi daraxt.
Meni kuzga topshirib qo`yib,
Sen qaylarda qolib ketding baxt?

Yuqoridagi har ikki parchada ko`rib turganingizdek tabiat unsuri bo`lgan daraxt sadoqat va vafo kabi insonga xos bo`lgan xususiyatlarga ramz sifatida qo`llangan. Birinchi parchada shoiraning o`zi sodiq va mard deya ta`riflayotgan bo`lsa, ikkinchi parchada daraxtlar lirik qahramonning yoshlarini artish uchun o`z jonidan bir bo`lak bo`lgan barglarini tutish orqali mardliklarini, sadoqat bilan g`amnok qalbga dalda bo`layotganliklarini ifodasini ko`ramiz. Inson ruhiy dunyosini to`la tadqiq etish, o`rganib nihoyasiga yetkazish aslo mumkin emas. Olam sir-u sinoatga qanchalik boy bo`lsa, odamzod ruhiy dunyosi ham shunchalik murakkab va chegarasiz. Mana shu murakkablik va cheksizlik manzaralari ham rangindir. Shuning uchun haqiqiy shoir o`zini inson qalbi va ruhining muhofizi, musavviri deb his qiladi. Uni har qanday qo`pol, tashqi ta`sirlardan himoya qilish uchun kurashadi. Inson ko`ngli va ruhiy hayotini tadqiq etgan ijodkorlar, sirtidan qaralganda, tashqi voqelikdan yiroqlashganday ko`rinadi. Aslida esa, tashqi dunyoning ko`p muammolari inson farzandining qalbiga yo`l topish, ruhini anglash orqali hal etiladi. Inson ruhiyati yechilmas jumboq. Hech qanday fan hali uni to`liq tasvirlay olmagan. Badiiy ijodning o`ziga jalb etuvchi jihatlaridan biri, uning inson ichki olamidagi qorong`u va mavhum tilsimlarni ochish qobiliyatidir. H.Ahmedova ana shu jihatni yanada boyitgan. Chunki, u inson ruhiyatida ro`y beruvchi jarayonlarga mos tabiat hodisalarini topa biladi, hamda ikki jarayonni uyg`un

holatda o'z she'rlarida qo'llaydi. Bunday ifodalashning yutug'i shundaki, biz qalblarda jo'sh urayotgan tuyg'ular isyonini bilmasligimiz, og'rig'ini tatimagan, azobida yashamagan bo'lishimiz mumkin. Ammo tevarak-atrofdagi sodir bo'layotgan tabiat hodisalarini ko'rganmiz, ozmi-ko'pmi xabardormiz. Buni qalbdan his qilgan iste'dodli shoira inson ruhiyatini bevosita tabiat bilan bog'lab, qalb kechinmalarini mohirona ifoda etadi. "Da'vo" she'ridan olingan parcha:

Yuragim sevgidan gullagan paytlar
Gullashni daraxtga o'rgatgan edim.
Mening gullab yotgan ko'nglimga boqib,
Daraxt ham entikib gulladi so'lim.

Lirik qahramonning yuragi shu qadar sevgiga limmo-lim to'ldiki, daraxt bahorda zarur kuchni jamlab bo'lgach, kurtak yozib gullagani singari gullay boshladi. Chiroy ochdi. Shoira tabiatdagi "daraxtning gullashi" jarayonini mahorat bilan inson ruhiyatidagi "quvonch", "shodlik" holatlariga tashbehlay olgan. Inson qalbdan quvonar ekan, uning ko'tarinki kayfiyati tashqi qiyofasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Erta bahorda qiyg'oz gullagan daraxt misoli atrofga go'zallik ulashadi. Yuqorida keltirilgan parchada ruhiyatning sirli tamoni tabiatning ajib bir hodisasi orqali o'quvchiga yetkazib berilgan. Halima Ahmedova har qanday mavzuda qalam tebratmasin uni yuksak pafos bilan qog'ozga muhrlaydi. O'quvchi ham uni xuddi shunday ko'tarinki holatda o'qiydi. E'tibor bering, ko'tarinki kayfiyatda demayapmiz, - ko'tarinki holatda. Zotan, shoiraning eng mahzun she'rlari ham tushkun kayfiyat tug'dirmaydi kishida. Balki dil dardiga malham kabi, majruh ruhga quvvat beradi, – tetiklashtiradi

Yurakda gul ochgan sevgi bog'ida
Yillarning shamoli nogoh berdi pand.
Gullashdan to'xtadi yuragim ammo
Daraxt hamon gullar menga nopisand.

Yurakdan sevgi shunchalar chuqur joy egalladi-ki, sevgi daraxtlari bog`ga aylandilar. Ammo vaqt... Vaqt hamisha beshafqat. Yillar o`tib qarovsiz qolgan bog`lar quriydi va kuzning to`zg`in bir shamoli ularni nobud etadi. Yuraklarda ham shunday... Yillar o`tgan sari e`tiborsiz qolgan muhabbat alangasi so`nadi. Barchamizga tanish manzara. Yuragimizda qachonlardir jarohat bo`lib qolgan o`sha damlar, o`sha iztirobli voqealar ham bugun shirin bir xotira bo`lib qalbga hayajon soladi. Xo`sh, mana shu satrlar kimni mahzun kayfiyatga chorlaydi. Shoir qalbidagi ichki olami bilan yaxshi tanish, shuning uchun ham kechinmalarini tadqiq qilishda qiynalmaydi. Tafakkur imkoniyati shu qadar kuchliki, u basharning dard-u tashvishlari bilan o`zining kechinmalari o`rtasidagi ko`zga ko`rinmas bog`liqlikni mohirona ilg`aydi. H.Ahmedovanning she`rlarida daf`atan sezilmaydigan, ko`ngil tubida ko`milib yotgan hissiyot, kechinmalar ifodalanadi. Ularda chuqur g`amginlik hissi, nola, iztiroblar aniq aks etadi. Ayni jihat shoir she`rlarining o`ziga xosligi sanaladi. Shoiraning she`rlarida borliqqa bezovtalik bilan qaraydigan, hayotni chin dildan sevadigan, unga talpinadigan, samimiy qalb tuyg`ulari jo`sh urib turadi. Bu qalbga qarab, har bir kishi kechinma, hissiyotlarining avval anglamagan ajib qirralarini kashf etadi. Chunki, shoir she`rlarida ko`pchilikning hayoliga kelmagan fikrlarni aytadi.

Ko`z yoshingni artib ol, deya

Xazonini tutadi daraxt.

Meni kuzga topshirib qo`yib,

Sen qaylarda qolib ketding, baxt?

Shoir she`rlarida hamisha inson ruhiyatidagi o`zgarishlar tabiat hodisalariga yonma-yon tasvirlanadi. To`g`rirog`i, qalb kechinmalarini o`quvchi yuragiga ta`sirliroq, tushunarliroq qilish uchun adiba tabiat hodisalaridan foydalanadi. Yuqoridagi parchada inson qalbidagi g`ashlik, iztirobli damlar kuzning sokin, xazonrezgilik davridagi kunlari bilan yonma-yon tasvirlanadi. Ular orasidagi bunday o`xshashlik faqatgina Halima Ahmedova she`rlaridagina uchraydi.

Oyog`ing ostida bargday,
To`kilib yotardi ko`nglim.

Yuqoridagi satrlarda ifodalangan ko`ngilning daraxtdan to`kilgan bargga o`xshatilishi yangi va kutilmagan tashbehdir. U o`quvchini yetarlicha mushohada qilishga majbur eta oladi. Chunki, ushbu satrlarni shunchaki yengil o`qib bo`lmaydi. Nega aynan to`kilib yotgan barg? Axir barg xazonga aylanganda to`kiladi, qurib bitadiku? Lirik qahramonning ko`ngli shu qadar g`am-alamdan, sevgi azobidan qayg`uga botdiki, yor poyiga barg kabi o`zini “yoydi”.

Ijodkor uchun “daraxtlar”dan yaqin “kimsa” yo`qdek, quvochi ham dard-u g`ami ham o`sha daraxtlar. U hatto o`zi suygan yor timsolini ham daraxtlarga tashbehlaydi.

Yodim bog`larida sarg`aygan daraxt,
Meni olislarda unutgan sizmi?
Dunyoga o`t qo`ygim kelib gohida
Sizga talpinganim hech sezdingizmi?

Muhabbat qarovsiz, e`tiborsiz qolishi alangalangan-u so`ng asta o`chgan gulxanga o`xshatiladi, odatda. “Yodim bog`larida sarg`aygan daraxt” deya yorini mangu hayolida, yodida yashab kelganini, anchadan buyon ishq uni kuydirib mana bugun sarg`aygan daraxt misol so`lib borayotganini tasvirlaydi ijodkor. Bu tashbeh esa favqulodda kutilmagan hamda tamomila yangidir. “Armon” va “Muhabbat” obrazlari shoira ijodida salmoqli o`rin egallaydi. Hind braxmanlarida: "Insonning ko`zi, o`zidan boshqa hamma narsani ko`rishga qodir" degan aqida bor. Ijodkorning nigohi bundan mustasno deb bo`lmaydi, ammo, ijodkor, ayniqsa shoir ijtimoiy dolzarb muammolarni bir chetga yig`ishtirib qo`yib, "ko`z qorachig`ini ichga qaratadi". Binobarin, ruhiyat (psixologizm) - bu muallifning badiiy bo`yoqlar bilan qahramonning ichki olami manzarasini chizishga bo`lgan urinishi hisoblanadi. H.Ahmedova she`rlarida ham huddi shunday holat ko`zga tashlanadi. Shoira bor ijodiy mahoratini ko`zga aylantiradi va insoniyat qalbiga yo`naltiradi. Ana shu qalbda manguликka aylangan “armon” she`rlarda yuzaga chiqa boshlaydi. To`gri

shoira “mana mening armonim” deya ochiqdan ochiq armoni haqida kuylagan hech qanday satr yo`q.

Ijodkorning “Osmon ko`ngli” nomli she`ridan olingan quyidagi parchaga e`tiboringizni qaratmoqchiman.

Xazonga aylangan yurakni,
Bokira maysaga suydirdim.
Ko`rsatib ruhimning jamolin
Dunyoning ko`zini kuydirdim.
Har giyoh, har toshda yuz ochib,
Afsunday to`lg`andi bu dilim.

Yurak qachon xazonga aylanadi?! Yurakda umidlar so`nsa, o`zi izlagan, talpingan borliqqa yetolmasa, u tamoman yashashdan voz kechadi. Daraxt barglari kuz kelib, xazonga aylangani singari yurak ham to`kilishga, hayotni tark etishga shay bo`lib qoladi. Shoira ana shu ikki hodisani “Osmon ko`ngli” she`rida yakdil holatda tasvirlagan. Xazon singari jonsiz bo`lib qolgan yurakni hayotga qaytarish imkoni ham bor, ijodkor buning uchun erta bahorda tuproqdan bosh ko`targuvchi maysalardan foydalanadi. Zero, Abdulla Ulug`ov “Hur gulsan, hayot” nomli maqolasida huddi mana shu she`ri uchun Halima Ahmedovaga quyidagicha ta`rif beradi: “Hissiyotlarni bu tarzda tiniq bayon etish, kechinmalarni ehtiros bilan ifodalash uchun kishida iste`dod bo`lishi zarur. Iste`dod- ijod qilish qobiliyati esa yaratganning bebaho ne`matidir. Halima Ahmedova ana shu ne`mat bilan siylangani bois borliqning boshqalar idrok etmagan ma`nolarini kashf etib, yulduzli osmon, qorong`i kecha, yorug` kunduz, tuproqdan bosh ko`targan maysa, ko`kka bo`y cho`zgan daraxtlarni tiniq ta`riflaydi, uning teran nigohi tevarak-atrofdagi barcha narsani boshqacha ko`radi. ” Darhaqiqat, ushbu ta`rif tamoman to`g`ri berilgan desak, mubolag`a bo`lmaydi. Chunki, shoira ijodida biz umuman o`zgacha haroratni, o`zgacha jozibani topishimiz mumkin. Fikrlarimiz isboti sifatida e`tiboringizni quyidagi she`riy parchalarga qarataman:

Ko`nglimning xilvatida
G`animlar maysaga,
Do`stlar nurga aylanadilar
Qizg`aldoq qonini simirgan sahar-
Ufqlar ortidan, beradi sado

Va bu sado sari borar emaklab-
Vaqtning qamchisida ezilgan dunyo...

Bizga shu narsa ayyonki, ko`ngilga ozor berib, unga qorong`ulik, xilvat soluvchilar bu g`animlardir. Ularni shoira yuzasi mayin bo`lsa ham yerni yorib chiquvchi maysadek tasavvur etadi. G`animlar uning ko`ngliga ana shu maysalar singari kirib olgan va xilvatlarda og`riq beradilar. Maysaning yer ustidagi harakati g`animlar ozorining qalblardagi jarohatiga qiyoslanadi. Ijodkor do`stlarni esa o`z ko`nglining nurlariga “aylantiradi”. Sababi, ular yuraklarga yorug`lik olib keladilar. Og`riqlarga malham beradilar. Mahorat bilan g`animlar maysalarga, do`stlar esa nurlarga tashbehlangan ushbu she`r har qanday insonning qalbini uyg`ota oladi. Ozorlangan yurak yuqoridagi satrlardan taskin topadi.

Yana vujudimning qayeridadir
bosh ko`taradi
So`ngsiz tahlikalar jangi basma-bas
Shodlik urug`ini izlayotgan hayot
Qo`shig`in kuylashga yetmaydi nafas...
Zilol tasavvurim loylatgan
g`amning –
Sog`inch tonglarini yopgan bulutning-
Va yana tole`eshigidagi qulfning
Og`irligin his qilaman mudom jonimda...

Inson ko`nglida hamisha hissiyotlar jangi bo`lib o`tadi. Bir-biriga qarshi bo`lgan tuyg`ular hamisha basma-bas o`z so`zini o`tkazmoq istaydi. Lirik

qahramonning yuragida ham ana shu jadallik hukmron. Uning vujudida hayotning shodlik izlab aytayotgan qo`shig`ini kuylashga ham mador yo`q. Tasavvur qanday loylanishi mumkin? Suvgina loylanishi mumkin va bu ham tabiat hodisasi, tabiatning bo`lagi. Inson tasavvuri g`amni o`ylayverganidan toliqadi, ana shu g`amni keltirib chiqargan sabab bartaraf etilmaguncha mana shu g`am uning hayolini band etib turaveradi. Suv loylanganda juda xunuk tusga kiradi, zilolligidan asar ham qolmaydi. Qora rang uni chulg`ab oladi. Yuqoridagi satrlarda g`amning bergan og`rig`i “suvning loylanishi ya’ni loyqalanishi”ga parallel tarzda ifoda etilmoqda.

Hozir esa samoni orzulayotgan
Daraxtlar ko`ziga qarayman.
Ular naqadar sof, naqadar toza
Balki dunyodagi barcha go`daklar-
Nigohi daraxtlar ko`zidan olgan andoza
Men shubhaga to`la
nigohlardan bezorman
Bezorman hasadga to`la ko`zlardan.
Ular har kuni oyog`im, qo`llarim
izini hidlab-
Nimadir, nimadir ahtarar mendan...

Bu satrlarda ham tuganmas og`riq bor. Lirik qahramonning yuragiga gumon oralagan endi u hasadga to`lgan, shubhaga to`lgan ko`zlarga ishonmaydi. Qalbiga dardkash bilgan daraxtlar nigohiga ishonadi. Insoniyat samoni orzu etgani singari daraxt ham shu yo`lda harakat qiladi. Uning nigohi chaqaloqlar nigohiga andoza. Ularning har ikkisi ham juda sof. Ijodkorning bu ikki hodisani qiyosiy tarzda ifoda etishi hech uchramagan tashbehdir.

Ular bilmaydilar har kun botishin
Yuragim qoniga cho`milib oftob...
Yana bilmaydilar telba ishq uchun
Faqat Haqning o`zi berishin javob.

Atrofga zulmat cho`kar ekan oftob asta-sekin bota boshlaydi. Quyosh botishidan oldin yonib turgan olov rangi kabi qizil tusga kiradi. Ana shu hodisaning o`zi ham shoira she`rida g`ayri odatiy ifodasini topgan. Mana shu qizillikni u yuragidagi qon tusiga o`xshatadi. Go`yo oftob ana shu qaynoq qonga cho`milgan-u shu sababdan shu tusga kirgan. Ikki holatning o`rtasidagi ushbu motivatsiyadan ijodkor mahorat bilan foydalanadi va takrorlanmas ijod mahsuli yaraladi.

Qorachig`i qadoq mehnatkash ko`zim,
Suratga olasan borliqni tinmay.
Kichik chumolidan koinotgacha,
Suratin ishlaysan sen hech erinmay.

Lirik qahramon hayotda o`z o`rnini topish uchun harakatda, uning ko`zlari hayot ma`nosini qidirayotgani sababli shu yo`lda qorachig`i ham qadoq bo`lgan. Shoira ko`zning tinimsiz mehnatini, ishlayverganidan qadoq bo`lib ketgan qo`lga o`xshatadi. Ikki hodisa o`rtasida motivatsiya uyg`otadi. Ko`zning qadoq bo`lishini tasavvur qilish qiyin ammo, adiba bizga shunchaki ko`zlar juda holdan toyganini aytishni xohlamaydi. Ularga mos tashbehni hayotdan, tabiatdan topa biladi. Bu esa shoiraning yuksak mahoratidan darak beradi. Mana shu jihati bilan ham boshqalardan farq qiladi. Unda bitmas-tuganmas ruhiyat qudrati bor. U she`rlarida dard-u g`am, alamni mag`rur qarshilashga hamda mardonavor yengib o`tishga undaydi. Mahzun u, ammo bu ojiz xazinlik emas, balki ulkan qoyaga monand mahzunlik. Adibaning ijod mahsuli she`riyat ixlosmandlarining ko`ngillariga taskin, dardlariga malham, alamlariga yupanch bera oladi.

Hayotimizda ro`y berayotgan har qanday hodisa bizni hayollar ummoniga g`arq qila oladi. Undagi har qanday voqealiklar, o`zgarishlar biz uchun qiziq tuyuladi. Kishilarga ko`rgan-kechirganlarini, eshitganlarini, o`z ishtirokida bo`lib o`tgan voqealarni bir-biriga qiyoslash hamma narsadan ko`p zavq beradi. Har bir odam kutilmagan taqqoslashlar, chiroyli o`xshatishlardan o`zgacha huzurlanadi. Nima uchun shunday ekanligini esa sharxlab ham, tushuntirib ham bo`lmaydi. Bu inson ruhining sirli jumbog`idir. O`z o`rnida qo`llangan tashbehtar, hech kutilmagan

qiyoslashlar dafʼatan tuygʻularimizni toʻlqinlantirib, tasavvurimizdagi, hayolimizdagi soʻnib borayotgan hayolotni chaqmoq singari yoritib yuboradi. Halima Ahmedova sheʼrlarini oʻqir ekanmiz, biz ana shunday ajib bir holatga tushib qolamiz. Ulardagi oʻxshatish va qiyoslashlar chuqur, teran maʼnolarni mujassamlashtiradi. Toʻgʻri, tashbehlar qanchalik chiroyli, tiniq boʻlmasin, oʻzicha maʼno kasb etmaydi. Ular ham barcha badiiy tasvir vositalari singari oʻz oʻrnida qoʻllanganidagina diqqatni tortadi. Ana shunday sheʼrlarni oʻqiyotganida kishi oʻzini boshqa bir olamda his etadi. Ulardagi qiyos, sifatlashlar hayol kengliklarida ajib manzaralar hosil qiladi. Bu esa junbishga kelgan hissiyotlarni koʻngilda gʻalayon qilayotgan ziddiyatli kechinmalarni aynan sheʼr orqaligina ifodalash mumkinligidan dalolat.

2. An'anaviy poetik obrazlarning yangicha iste'fodasi

Poetik matn tarkibidagi har bir soʻz muayyan badiiy ma'noga ega. Adabiyotdagi boshqa janrlarga nisbatan soʻzning poetik ma'no olishi she'riy asarda to'laqonli amalga oshadi. Ayni paytda, butun she'riyatga tegishli an'anaviy poetik soʻzlar guruhini ko'rsatish mumkin. Lekin bu an'anaviylik muayyan shoir ijodida individual mazmun kasb etadi. Ayni vaqtda u yoki bu ijodkorning ma'lum bir poetik obrazga nisbatan faol qo'llashi oydinlashadi. Bu o'rinda takrorlar kelmaydi. Ijodkorning o'ziga xosligi soʻzning ma'no qatlamlarini yangidan ocha bilishida ko'rinadi. Tildagi har soʻzning cheklanmagan darajada poetik imkoniyati mavjud. Bu imkoniyatni esa faqatgina ijodkor mahorati yuzaga olib chiqadi. Agar turli davrlarga mansub bo'lgan shoirlar she'riyati o'zaro taqqoslansa, har bir davrga xos faol poetik soʻz, obrazli ifodalarni uchratamiz. Halima Ahmedova she'rlarida bu xil poetik obrazlar anchagina. Ularning aksariyati shoira ijodida an'anaviylik kasb etgan. Misol uchun quyosh, oy, yulduz, togʻ, tosh, daraxt, shamol, maysa, pechak gul, xazon, kuz kabi obrazlarni keltirishimiz mumkin. Sanab o'tilgan obrazlar boshqa davr she'riyatida, xususan, mumtoz adabiyotda ham keng o'rinda qo'llanilgan. Halima Ahmedova she'rlarida bu obrazlar mavzu va ohangga mos ravishda o'z ma'no qamrovini kengaytirgan. Shoira soʻzlarni qayta kashf etib yangilagan. Albatta an'anaviy obraz zamiridagi ma'nolar qatlami butkul yo'qolib ketmaydi, ularning qatida yangi ma'nolar tadriji saqlanadi. Halima Ahmedova she'riyati poetikasi va unga mumtoz adabiyotning ta'sirini, ko'p yillik tajribaga ega adabiyotimiz tarixidagi obrazlar, badiiy tasvir vositalarining shoira ijodida qanday yangilanganini kuzatish ijodkorning badiiy mahoratini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Buyuk bobokalonimiz mir Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostonida

Yaprogʻ yuzi bo'ldi barcha sorigʻ,

Oyin magar o'ldi sarigʻ og'rigʻ,-

degan bayt bor. Alisher Navoiy "kuz va xazon" obrazidan kutilmagan ma'no va haqiqatlar tasviri uchun foydalanganki, har qanday kitobxonni o'ziga jalb etadi,

mahliyo qilib qo`ya oladi. Jumladan Alisher Navoiy kuzni sariq kasaliga uchragan bemorga o`xshatsa Halima Ahmedova kuz kirib kelgan bog`larni yelkasida gunohi bilan tasavvur etadi.

Va hamon qiynalar jon berolmay kuz-
Yelkasida ulkan, yam-yashil gunoh!

Navoiyning yuzlab g`azallarida “xazon”, “xazon yaprog`i” timsollari vositasida aks ettirilgan fikr va tuyg`ularga duch kelish mumkin. Shoir bir g`azalida shunday yozadi:

Xazon fasli ul jismu ruxsorimni ko`rgan chog`,
Degaykim bir quruq shox uzra qolmish bir sorig` yafrog`.

Bu baytda shoir kuz faslida birgina yaproqdan boshqa barcha barglari to`kilgan daraxt shoxi orqali oshiq holatini gavdalantirib bergan.

Halima Ahmedovaning “Oktyabr” nomli she`rida

Xali topilmagan baxtning nomini
Xazonlar yuziga yozar shabnamlar.
Befayz sukunatning sarg`aygan yo`li
Aro dil tarixin topadi g`amlar.
Mahzun yo`laklarda ulg`ayib borar,
Kuzakning bahorga asrangan qalbi.
Sokin ufqlarga bosiladi jim,
Qonab borayotgan hayotning labi.

Sirtidan qaraganda, ushbu satrlardagi ma`no va kayfiyatning Alisher Navoiyning yuqoridagi misralariga hech qanaqa aloqasi yo`qday. Lekin mohiyat va timsol e`tibori bilan o`zaro qiyoslansa, orada yaqinlik va aloqadorlik mavjudligi ravshanlashadi. Navoiy oshiq holatini sharhlaganda kuz faslini tanlagan. H.Ahmedova ham xuddi shunday. Ulardagi muqoyasa predmeti ham obykti ham o`zaro yaqin. Navoiy oshiq qismatini daraxt shoxida yolg`iz qolgan yaproq timsolida ifodalagan bo`lsa, H.Ahmedova ushbu holatni xazonlar yuziga yozilgan nomsiz baxt tasviri bilan jonlantirib bera olgan. Shuningdek shoiraning ushbu she`rida keltirilgan

quyoshning botish jarayoni g`oyat go`zal hamda hali hech shoir ijodida uchramagan tashbeh bilan talqin qilinadi.

Sokin ufqlarga bosiladi jim,

Qonab borayotgan hayotning labi.

Ushbu misrada quyosh poetik obrazi oquvchi hayolida juda yorqin ranglar bilan tasvirlab beriladi. Kuz faslida quyosh botishi pallasi osmon yorqin alvon rangga chulg`anadi. Ijodkor quyoshni “hayotning labi”ga, uning alvon rangini esa “qon”ga tashbehlaydi. Hayotiy o`xshatish bilan u kutilgan natijaga erishadi ya`ni kitobxon qalbini ayni ana shu muhit qamrab oladi. Quyosh botishida ro`y beradigan tabiat tasvirini hayolan tomosha qilib qolmay, balki uning haroratini ham his qila oladi. Halima Ahmedova “xazon fasli”, “xazonli bog`lar”, “xazon qismati” bilan chuqur qiziqqan ijodkor. “Daraxtlar-yorlari unutgan qizlar” she`ridagi “Sog`inch va armonning dilbar she`ri -kuz” yoki “Osmon ko`ngli” nomli she`ridagi “Xazonga aylangan yurak” kabi e`tiroflaridan ham bilish mumkin. Navoiy yuqoridagi singari ko`plab baytlarida inson ruhiy holati va kayfiyatini jonlantirib ko`rsatishda kuz manzaralaridan qanday ustalik bilan foydalangan bo`lsa, Halima Ahmedova ham “Kuz”, “Kuzning so`nggi ertagi” kabi she`rlarida shunday yo`l va usulni tanlab, e`tiborli ijodiy yutuqlarni qo`lga kiritgan.

A.Sharopov yozganidek: “Tabiat hodisalari o`zicha emas, balki o`zga ma`noda berilsa, unga inson ruhi, xarakteri singdirilsa, u ramzga aylanadi. Albatta, bunda ramz badiiylikdan mahrum bo`lib qolmasligi kerak”.³ Darhaqiqat, ijodkor tomonidan qo`llanilgan poetik obrazlar tabiatdan olinsa va ularga singdirilgan mazmun chuqur ma`noli bo`lsa, inson ruhiyati va tabiatdagi o`xshashlik bir-birini boyitadi va to`ldiradi. O`zigacha bo`lgan she`riyat an`analarini ijodiy davom ettirgan va rivojlantirgan shoirlarimizdan biri Ogahiy g`azallaridan birida shunday yozadi:

Oqardi chun boshing, uz, Ogahiy, o`zdin umidingkim,

³ Sharopov.A. Olamlar ichra olamlar. Toshkent:G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti,1978. 109-bet.

Xazon yetgan nishonidur qirov tushsa gar bog` uzra.

“Xazon yetgan nishonidur qirov tushsa gar bog` uzra” misrasi go`yo oddiy tasvir bo`lib, kuzning kelishidan darak berayotganga o`xshaydi. Aslida esa uning vazifasi boshqacharoq. Ya`ni u “bosh oqarishi” bilan bog`lanib, nisbatan keng ma`no tashuvchi obrazga aylanganki, bu xususiyat xazonni umrning oxiri, qarilikning ramzi darajasiga ko`taradi.

Shoiraning “Chig`atoy” nomli she`ri shunday misralar bilan boshlanadi:

Kuzning ilk shamoli yuzlarim o`pdi,
Nedir aytmoqchiday qiynaldi Xazon.
Umrinni sanagan ayg`oqchi cholday,
Meni kuzatardi sokin bargrezon.

She`rning nomini o`ziyoq o`quvchi qalbni o`ylantirib qo`yadi. Nega “Chig`atoy”? Kuz shamoli, kuz tasviri , umuman xazonning bu nomga qanday aloqasi bor? Kuz fasli inson umrining keksalik, sarhisob davriga o`xshatiladi. Keksalik eshik qoqib kelar ekan yuzdagi porloqlik o`z o`rnini so`lginlikka bo`shata boshlaydi. Yengilgina ajinlar ham yuzga “qo`nib boradi”. She`rda keltirilgan “kuzning ilk shamoli” yuzlarni “o`pishi” ayni mana shu jarayonni obrazli ifodalanganidir. Ushbu o`rinda shamol poetik obrazining qo`llanishi mazmunni anglashga turtki vazifasini o`taydi. Lirik qahramon yuzlarini o`pgan shamol xazonlarni ham o`z kuyiga jo`r bo`lishga undaydi. Xazonlar nenidir aytmoq istaydilar-u shivirlashdan nariga o`tolmaydilar. Kuz tilga olinar ekan, u bilan birga xazon yaproqlari ko`z oldimizga keladi. Chunki, xazon kuz bilan birga bahor, yoz ya`ni inson umrining yoshlik chog`larini ham yodga soladi. Xazon yil fasllari almashinuvi natijasidir. Faqat xazonning ibtidosi bahor, intihosi kuzga to`g`ri keladi. Xazonga aylangan barglar asta-asta daraxt shoxlaridan uzilar ekan, lirik qahramonning ko`z oldidan birin-ketin o`tib borayotgan kunlari, umr sanog`i kabi o`ta boshlaydi.

Bu ulkan makonda aylandi ruhim,
Giyohlar titrarakan sirli, qayg`uvor,

Seskandim. Qarshimda qarab turardi

Bolasin sog`ingan onaday mozor.

She`rning falsafiy mazmuni oxirgi bandda yaqqolroq ko`zga tashlanadi. Yengilgina esgan kuzning ilk shamoli ta`siridan har giyohning sirli va qayg`uli titrashi, kelgusida ularning vujudi kuzning xazonli kunlarida toptalib ketishini anglab qilayotgan nolasidek tuyuladi. Ibtido bor ekan, umrning intihosi ham mavjud ekanligi mozorning sog`inch bilan qarab turishi tasviri bilan o`z isbotini topadi. Yuqoridagi misralar Ogahiyning “Xazon yetgan nishonidur qirov tushsa gar bog` uzra” misrasiga hamohang. Ogahiydagi xazon keksalik, qarilik timsoli bo`lsa, H.Ahmedova esa xazon va kuz poetik obrazi bir vaqtda ham tabiat fasli, ham keksalik faslining ramzi sifatida she`rda mohirona qo`llaganining guvohi bo`lamiz. Shoira ijodiga nazar tashlar ekanmiz, uning yangicha ruh bilan yaratgan obrazlaridan biri bu **quyosh** ekanligiga amin bo`lamiz.

Shunchalar chaqqonsan,

shuncha ozoda,

Sendan poklanadi hatto tog`-u tosh.

Eng kichik maysadan daraxtlargacha

G`uborin yuvasan erinmay, quyosh.

Lirik qahramonning quyoshga mehri tamoman o`zgacha, uning tong sahardan olamni nurga to`ldirishi, asta-sekin har bir manzilga nur taratib borishi ya`ni “Eng kichik maysadan daraxtlargacha” erinmay g`uborin yuvishi uni o`ziga maftun qilgan.

Yaproqlarning nafis tabassumida

Jilva etar sening nurli afsonang.

Yaratgan nafasi ufurgan joydan

Asli bunyodmikan yoki koshonang...

Quyosh obrazi asta-sekinlik bilan she`r ichida tadriji o`sib borayotganiga guvoh bo`lamiz. Maysa, daraxt va yaproqlarni o`z nuriga to`yintirib boradi. O`z aksi, jilvasini ularga-da ulashadi. So`nggi ikki misra she`r mazmunini to`la ochib beradi.

Ya'ni bu bandga tasavvuf ta'limoti va undagi tajalli nazariyasining "Xudoning va Xudoda tabiat majbuddir. Tabiat va inson qalbida Xudoning jilvasi namoyon" asosiy qarashi singdirib yuborilgan.

...Qachondir bir nomard ko`nglim kir etib,
Sodda ko`zlarimga quyib ketdi yosh.
Hayotni qaytadan sevishim uchun
Ko`zim-u ko`nglimni yuvib ber, quyosh.
Shunchalar chaqqonsan, shuncha ozoda...

Oxirgi banda ham yuqoridagi fikrlarimiz dalilini ko`rishimiz mumkin. Quyosh poetik obrazi tabiat unsuri sifatida qo`llangan satrlar bilan bir qatorda u she'riy asarda bir muncha shakllanib boradi, maysa-yu daraxtni g`ubordan tozalagani bilan barobarda asta inson qalbiga ham kirib bora boshlaydi. Lirik qahramon o`zining yaralangan ko`nglini ham quyoshga, uning nurlariga tutadi. Ijodkor quyosh poetik obrazini faqatgina tabiat unsuri sifatida qayta jonlantirmaydi, uni tabiatdagi Xudoning jilvasi maqomida ko`radi va ana shunday tasvirlaydi. Bunday qarashlar hazrat mir Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy, F.Attor kabi yetuk tasavvufiy ijodkorlar asarlarida ham o`z aksini topgan. Xususan, Alisher Navoiy g`azaliyotida:

Axtarin ashk ettiyu sovuq nafasni oh subh,
Bo`ldi go`yo shomi hajrim holidin ogoh subh.

Avvalo notanish so`zlarga izoh beramiz: axtar — yulduz, ashk — ko`zyoshi. G`azalda hazrat Navoiy ajoyib shoirona tasvir yaratgan: tong (subh) jonlantirilib, unga odam xususiyati singdirilgan. Tong g`ira-shirasida yulduzlar ko`zyoshiday omonat miltillaydi, tongning salqin shamoli esa, dardmand oshiqning ohiday sovuq. Ya'ni tong oshiq ahvoliga achinadi, g`amgin bo`ladi va ko`zyosh to`kib, sovuq oh tortadi. Lirik qahramon o`z holati bilan otayotgan tongni qiyoslab, tong mening ayriliq shomidagi azoblarimdan xabar topib, salqin shabada ufurib, oh chekdi, deydi. Ertalabki salqin shabada dard zo`ridan ohu nola qilgan odamning nafasiga o`xshatilgan, sovuq oh esa bu o`rinda afsus va achinish, ojjizlik nishonasi. Baytning nasriy mazmuni: «Tong go`yo mening hijron tunidagi ahvolimdan xabar topganday,

yulduzlarni ko`zyoshi qilib, sovuq shamoli bilan oh urib yetib keldi». Bu — baytning «dunyoviy», oshiqona sharhi. Baytning botiniy, orifona ma'nosini tushunib olishimiz kerak. Chunonchi, tong (subh) — «vahdat nurining taralishi» ilohiyot tajallisi; u olami g`aybdan nuzul etib, zulumatni oshiq ko`ngli sahifalaridan sildirib tashlaydi. Oh — ishq g`ulg`ulasining til bilan ifodalab bo`lmaydigan avj lahzasi. Shom — vahdatga qarama-qarshi kasrat (ko`plik) martabalari, taayyunot pardasi. Nafas — ko`ngilning ma'naviyat gulzoridan esgan lutfidan tozalanishi, g`ayb latofatiga, mahbub talabiga intilish. Nafas, shuningdek, vaqtni, lahzalik holni, oniy o`zgarish va yorishishlarni ham bildiradi. Hijron — haqdan, ilohdan boshqaga yuz o`girish, ko`ngilning vaqtincha o`zga fikr-tashvishlar bilan band bo`lishi, parda orqasida qolishi. Ana shu ma'nolariga ko`ra, matla'ning orifona mazmuni bunday bo`ladi: «Mening dunyo ishlari —kasrat bilan mashg`ulligimni, haqdan boshqa narsalarga e'tibor qilib, undan uzoqda qiynalishimni ko`rib, ilohiy vahdat nuri dilim sahifasini tozalash, o`z holimga qaytarish uchun yetib keldi». Voqean, orzudagi ne'mat — go`zallikka muntazir odamning qalbi tongda yorishib, farah topishi tabiiy. Ko`ngil musaffo bo`ladi, yayrab nafas olasan kishi. Tong orifona she'riyatda ko`p qo`llaniladi. U — ilohiy fayziyat timsoli, nuroniy odam darakchisi. Ilohiy yor diydoriga tolib odam bu nurga yetishish uchun ko`pdan-ko`p ruhiy qiynoqlar, hijron azoblarini boshidan o`tkazishi kerak. Navoiy g`azaliyotida qo`llangan tong obrazi Halima Ahmedovanning quyosh obraziga hamohangdir. Zero, ikkala obraz ham oshiq qalbini g`am-anduhlardan, ishq zulmidan forig` etuvchi manba sifatida tilga olinmoqda. Mazkur g`azalning so`nggi baytini e'tiboringizga havola etsak:

Ey Navoiy, ul quyoshning mujdai vaslin berib,

Qilsa netkay shomi hashrim mehnatni ko`toh subh.

G`azalniig boshidan boshlab davom etib kelgan shom — tong badiiy zidlanishi maqta'ga kelib yakunlanayapti. Subhdan keyin quyosh chiqishi va tunning chekinishi muqarrar. Lekin Alisher Navoiy nazarda tutgan tong ilohiy tajalli safosi bo`lganligi sababli qo'yosh ham piri murshid qalbi yoki Mutlaq ruhning manbai timsolidir. Tong esa shu manba' — nur chashmasining darakchisi. Navoiyda

nur manbai- ilohiyot tajallisi tong obrazi orqali namoyon bo`lgan bo`lsa, Halima Ahmedova she'riyatida quyosh poetik obrazi aynan mana shu ma'noda o`z ifodasini topgan.

Poetik obrazning voqe bo`lishida nafaqat shoir badiiy tafakkuri, balki zamon ruhi, turli ijtimoiy qarashlar, estetik mezonlar va muayyan adabiy jarayonning ham muhim o`rni bor. Halima Ahmedova qo`llagan quyosh poetik obrazi mustaqillik davrigacha bo`lgan she'riyatda umuman o`zga ma'noda qo`llanganini guvohi bo`lamiz. Shoir Shavkat Rahmon she'riyatida ham quyosh obrazi faol qo`llangan. . obrazning ma'no qirralari esa shoir yashagan davr va uning dolzarb muommolari bilan bog`liq. Shoir "Yaxshi niyat" she'rida sgunday yozadi:

Kelajak bor hali bag`rida
Yuz mingta quyoshi porlagan.
Ishonma hech qachon, ishonma
Qo`lida quroli borlarga.

Bu o`rinda quyosh shoir orzu qilgan porloq kelajakning metaforik obraziga aylangan. Quyosh tabiatdagidek bitta emas, yuz mingta. Matnda quyoshning porlashi yorug` kunlarning poetik ifodasi bo`lib kelmoqda. Ijodkor uchun quyosh umuman o`zga mazmunni kasb etib turibdi. U endi tabiat bo`lagi emas yaxshi kunlarning, ezgu tongning, tinch-totuv hayotning xabarchisi, ramzi.

Ey ishq-i kamarbasta
Ayt, nechun dilim xasta?
Yo og`u quyib qonga
O`ldururmisan asta?
Derlar-ki, jazo bormish
Pinhon qilingan qasdda
Mehring, g`azabing tengdir
Ham oqil-u, nokasga
Aytchi, nigohing kimda,
Xushyordami yo mastda?

Rahm etgil, yashab o`tay
Poyingdan juda pastda.
Qiyomatda aylarsan
Ushshoq qalbin guldasta.
Bir tomchi diling bormi-
Halima degan sasda?!⁴

Ushshoq - oshiqlar demakdir. Oshiqlar borki dunyo bor. Majnunga : «Laylidan go`zalrog`ini ko`rsataylik,» deganlarida u: «Layli mening qo`limdagi bir qadah kabidir. Men bu qadahdan sharob ichyapman. Chunki men sharobga ya`ni ishqqa oshiqman. Sizning ko`zingiz faqat qadahda, ya`ni tashqi ko`rinishda, ichidagidan xabariningiz yo`q!» – dedi. Darhaqiqat, Sharob Ishqdir, Ishq esa Mohiyat, Qadah sinishi, bir harakat bilan chil- parchin bo`lishi mumkin. Ammo sharob- Mohiyat- Ishq mangudir. Ishq esa doimiy tashnalik, ruhning bemurosa telba ehtiyojidir. Bu tuyg`u faqat sharob ya`ni ishqdan totganlar uchungina ayon va totlidir. Bu tot, bu ta`m, bu rang, bu bo`y dunyoning dunyoligidan boshlab bor! Ishq - Mohiyat dedik, bas! U bor joyda munozara, muhokama, musodara bo`lmas! Uni bilganlar janglar qilmas, tuhmat bilmas, noishqlar, nokaslar, nodonlar sari kelmas! «Ishq» so`zining «chirmashmoq» degani ekanligini o`qib, uzoq yig`ladim. Chirmashmoq - ikki ruhning chirmashmog`i. Qanday asl tuyg`u bu, qanday pokiza! Ruhning chirmashmog`i oldida tanning, vujudning, mamlakat va taxtlarning va yana boshqa nimalarningdir «chirmashmog`i» qanday nochor va g`arib, tuban va mayda emasmi?! Parvardigori olam olti kunda borliqni va shu borliq ichra o`n sakkiz ming olamni, yettinchi kuni esa Odam Atoni yaratdi. Odam jismini tufroqdan qorib, jism ichra o`z mehridan bir nuqra soldi va uni «JON» deb atadi. Ana shu o`n sakkiz ming olamni esa odam uchun tobe qildi. Odamni esa jonga, jonni ishqqa payvand etdi. Demak-ki, butun borliqni ishq hukmiga havola etdi. Bu abadiy tuyg`u muhabbat bundan yuz yillab avval ham oshiq ko`ngillarga o`t yoqqani, hijron alamidan

⁴ Umid soyasi 56-bet.

dardmand dillarga tinchlik bermaganiga sizni ishontiradi. Bunga insoniyat tarixi, muhabbat o`tmishi guvoh, adabiyot gulshani guvoh. Bizga ma`lumki O`rta Osiyo xalqlari xalq og`zaki ijodiyotida ishqiy mavzudagi dostonlar juda ko`p, ular orasida “Tohir va Zuhra” dostoni ayricha qadrlanadi. Doston ikki yoshning olovli muhabbatini kuylaydi. Qahramonlar ishq savdosida neko`ylarga tushmaydi va oxir-oqibat vafot etadilar. Ikki sevishgan qalbning qabri ustidan esa oq va qizil pechakgullar unib chiqadi. Biz shoira Halima Ahmedovani nafaqat ijodkor, balki, adabiyot bilimdoni sifatida ham o`zimiz uchun kashf etdik. Uning she`rlarida tasavvufiy, ishqiy ohanglar bilan birgalikda xalq og`zaki ijodiyoti namunalari ham murojaat ko`zga yaqqol tashlanadi. Ayni yuqorida keltirilgan ishqiy afsona ham ijodkor qalbini larzaga solmay o`tmagan: u ham pechakgullar obrazini she`rlarida qo`llaydi. Ularni soddalik va ishqqa tashnalik timsoliga aylantiradi. Tohir va Zuhraning vafotiga ham ayni shu narsalar sabab bo`lmagamidi?! Axir, ular ham judda sodda va ishq sahrosining jununlariga aylanmaganmidilar?!

Ko`nglida bir telba isyon bordayin,
Hatto daraxtlarga, dil berar ular.
Sevgisi bejavob oshiqqa o`xshar
Sodda pechakgullar, devona gullar.
Osmonga talpingan, ko`yi lol, hayron
Kuzakning ko`ziga tikilib kular...
Ishq so`rab xudoga bormoqchi, balki,
Sodda pechakgullar, devona gullar...

Pechakgullar obrazi shoira ijodida yangilangan va qayta hayot ko`rgan obrazlardan biri hisoblansada, ularni oshiqlar qalbidan ayro tasavvur etib bo`lmaydi. Ular dostonidagi kabi “Ko`nglida bir telba isyon bordayin” tasvirlanadi, oshiqlar holiga qiyoslanadi. Uning umriga zavol bo`lishi mumkin bo`lgan kuzakka qarab ham “...tikilib kular”. Uning maqsadi hamon o`sha “Ishq so`rab xudoga bormoqchi”day. Pechakgullar Halima Ahmedova she`riyatida xalq og`zaki ijodiyotidan o`sib chiqqan yagona poetik obraz emas. Xalq og`zaki ijodiyotimizda

Alisher Navoiy hayoti va uning zukko, hozir javobligi haqida rivoyat va afsonalar bisyor. Ulardan birida aytilishicha podshohi olam Husayn Boyqaroning suyuqli kanizaklaridan biri vafot etadi. Bu xabarni hech kim unga yetkaza olmaydi. Shu sabab bu yumushga Alisher Navoiyni jalb etadilar. Hazrat do`stining qoshiga borib shunday deydi:

So`ldi, sarvigul so`ldi,
Hajrida ne qilmoq kerak?

Javob esa quyidagicha bo`lgan:

Sarvigulning soyasinda so`ldi gul netmoq kerak,
Bargidan kafan bichib, guldan tobut bichmoq kerak.

Yuqorida keltirilgan namunalarda sarvigul obrazi qo`llangan. Sarvigul ta`rifi, odatda, tik qaddi-qomatli, go`zal qizlarga nisbatan beriladi. Shoir ham sarvigul obrazidan she`rlarida unumli foydalanadi:

Bo`lsa agar bir kun armonim oxir,
Dilimni aytmasa zabonim oxir,
Ketsa tashlab joni mehmonim oxir-
Sarvigul bargiga ko`mingiz meni.

Keltirilgan misra huddi-ki, yuqoridagi hikoya qahramoni, podshoh kanizi tilidan aytilgandek, uning taqdiriga ishoradek tuyuladi. Nima sabab armonga oshno bo`lib qoladi bu zabonsiz qalb? Ishqning vafosizligidan emasmi? Qalbida jo`sh urayotgan armon, dilining tarjimoni zabon o`z yumushini bajarmay, tanaga mehmon bo`lgan ruh tashlab ketar ekan, inson tanasi kafanga muhtoj bo`lib qoladi. Lirik qahramon so`nggi yo`l uchun hamrohi sarvigulning barglari bo`lishini xohlaydi.

Kafan qiling mushfiq onam sochidan,
Daraxtlarga bering jon xirojidan,
Qon olib yuvingiz qushlar tojidan,
Sarvigul bargiga ko`mingiz meni.

Ishqdan vafo bilmagan faqatgina u emas. Ayol-ki bor, uning muhannati, mehri yetarlicha, hech bo`lmaganda o`zi kutgani qadar qadr topmaydi. Dunyolarni bergan

ayol qalbi zarra qumni olishga va shu bilan kifoyalanishga majbur bo`lib qoladi. Nima uchun lirik qahramon kafan uchun ona sochini so`raydi? Onasining sochi ham bejiz oqarmagan. E`tiborsiz yillar va dillar uning oq rangga chulg`anib ketishiga sababchi bo`lib qolgan. Daraxtlar-sadoqat va vafo ramzi, qushlar esa- erkinlik, hurlik timsoli. Ijodkor bejizga bu ikki detal obrazlarni ushbu she`rda qo`llamagan. Lirik qahramon bu dunyoda vafo va sadoqat izlab o`tdi. Endi uning ruhi erkinlik va hurlik tomon intiladi.

Tobutim, yel bo`lsin tobutim, sabo
Go`yandam- ko`zi ishq to`la iltijo,
Menga gulob seping, jon Momo Havo
Sarvigul bargiga ko`mingiz meni.

Biror narsani hikoya qilib beruvchiga nisbatan “go`yanda” so`zi qo`llaniladi. “Go`yandam- ko`zi ishq to`la iltijo” deyilishiga sabab ijodkorga berilayotgan ta`rifga o`xshaydi. Qismatimdan habar berayotganning ham qalb ko`zi ishq-muhabbatga to`la deb aytayotgandek. Momo Havoning tilga olinishi, gulob ila siylashi esa huddi, ayol qismati sendan, mendan boshlanayotgani yo`q, ayol zoti bor-ki har birining boshida shu taqdir aylanaveradi, degandek tassurot qoldiradi.

Janozam o`qisin ishq aldaganlar,
Onajon, yig`lamang, hech yig`lamanglar,
Bir kun ketar axir bari kelganlar,
Sarvigul bargiga ko`mingiz meni.

Yuqoridagi bandda hamma savollarga javob topiladi. “Ishq aldaganlar” sababchi bariga... Janozani dinimiz taqozosi bilan erkaklar o`qishi hammamizga ayyon. Lirik qahramon istamlariga sabab bo`lgan “ishq aldaganlar”ni ana shunday jazo bilan “siylaydi”. Halima Ahmedova she`riyatida qo`llangan sarvigul poetik obrazini biz to`liq holda xalq og`zaki ijodiyotidan o`sib chiqqan deb aytishimiz mumkin. Hikoyatdagi kabi yuqoridagi she`rda ham, vafo bilmagan ayol qavmi sarvigul bargiga o`ralib vafot etadi. Shoir sarvigul obrazi orqali ayolning naqadar nozik va jafokash ekanligini “ishq aldaganlarga” bir qadar eslatib o`tadi.

Sevgi-ko`hna tuyg`u, qadimiy hissiyot, lekin har bir oshiq uni o`zicha yangilagani (Hodi Toqtosh) kabi shoira Halima Ahmedova ham bu qadimiy va abadiy tuyg`uga o`zgacha ruh bag`ishlaydi. Uni o`zicha angilaydi:

Muhabbat, men sevgan devona g`azal,
Seni kuylagandim qay vaqt, qay zamon.
Tilimda so`yilgan bayt yanglig` tag`in,
Kuylar yig`lamoqda, kuylar noparmon.

Men seni kutaman, kutaveraman,
Muhabbat- yo`llarda qolgan o`tmishim.
Ruhim darvozasitonga qaragan,
Tonglarda qoldingmi, mohitob tushim.

Muhabbat- men sevgan devona g`azal,
Noparmon tunlarda oqqan kechmishim,
Muhabbat-qizg`anchiq o`zga bir qo`lda
Mensiz yashayotgan go`zal o`tmishim.⁵

Zohiran, hamma narsa ayondek, shoiraning ko`ngli satrlarda ko`rinib turgandek tuyuladi. Aslida esa, unchalik jo`n emas. Muhabbat, devona g`azal, so`yilgan bayt, qonagan ovoz, mohitob tush - bular ohori to`kilmagan, shoira ko`nglidan silqigan yangi va qabariq ma`nodor obrazlargina emas. Ularning har biri teran mazmunmohiyatiga ko`ra ramzlarga aylanayotir. Shoiraning dil tubiga ekilgan sirlarini anglash uchun esa, ramzlar, metaforalar bir ochqich. Sirtidan har bir so`z bizga eskidan tanishga o`xshaydi. Va lekin, ular yangi va chuqur yashirin ma`nolari bilan avval ko`rilmagan va uchratilmagan mohiyat kasb etayotir. Ishq-muhabbat, sadoqat, xiyonat, daraxt, ona, ota, Vatan, yurakdan silqib oqqan qon, kuylar

⁵ Erk darichasi 44-bet

yig`lashi, yo`llarda qolgan o`tmish- bular turfa xil ranglarda, ohanglarda, ma`nolarda tusalansa-da, ramzli mohiyati bilan sehrli so`zlarga aylanayotir.

Halima Ahmedova shunchaki she`riy satrlar muallifi emas. U asl shoira, Qodir Egam diliga ezgu amallar joylagan, ko`ngliga solgan, ijodkorlargagina yuqtirgan chinakam so`z ustasi. Deyarli barcha she`rlaridagi so`zlar o`quvchining ongi-shuuridan holi olamga mansub emas. O`zimiz har kuni kundalik muomila – suhbatlarda qo`llaydigan so`zlar. Va lekin, hayratlanarli tomoni shundaki, ular shoiraaning g`oyalari va tuyg`ularini aks ettirish jarayonida sehrli salohiyat kasb etadi. Shundoqqina ko`z oldimizda teran, serqatlam ma`noli, sersshoh tuyg`ular musiqasini kashf etuvchi go`zallik timsoli bo`lib qoladi. Halima Ahmedova nazdida shoir-afsonaviy bir shaxs emas. U ham rosmam bir odam. Shoira suhbatlardan birida she`riyat va shoirga quyidagicha ta`rif beradi: “She`riyat Olloh tomonidan berilgan dard. Ammo, u shunday dard-ki, inson qalbi undan ozor emas orom topadi. She`r yozayotgan shoir ana shu oromni bo`lishuvchi, uni elga tarqatuvchidir. Biroq, agar shoir she`rni to`qishga, she`r yasashga o`tsa u haqiqiy shoir emas. Yuragingda gijjilab turgan, yuragingni ezib turgan narsalarni yozmaguningcha, sen haqiqiy shoir bo`lolmaysan. Shu ma`nodan kelib chiqadiga bo`lsak, har bir she`rim- bu mening qismatim. She`riyat-bu qismatning o`zi”. Fikr - she`rning guli; tuyg`ular daraxti, kechinmalar bog`i. Shoira she`rlari- bu ko`ngil bog`larida o`z daraxtini ekishga, ko`kartirishga, ilk mevalarini yetishtirishga erishgan samarasi. U ana shu ko`ngil daraxtining nigohimizdan, hissiy idrokimizdan yashirin go`zalligiyu sir- sinoatlarini anglashga, kashf etishga intiladi. Va ushbu jarayonda butkul o`zgacha, serbarg tuyg`ulariyu fikrlari ko`ngil daraxtini bunyod etadi. U kechinmalar oloviyu nuridan, suviyu tuprog`idan yuzga kelgan daraxt urug`i. Shoira uni ko`ngil kengliklariga birma-bir qadab chiqadi. Ana shu urug` har birimizning dilimizda ildiz otib ko`karadi, mevalar tugadi. Farishtali qushlarga oshyon ham bo`ladi. Polaponlarini uchirma qiladi. Temir qanotlariga parvoz bag`ishlaydi. Va shu tariqa daraxtlar So`z bo`lib ko`nglimizda yashay boshlaydi. Ishq haqida bundanda badiiy, bundanda haroratli baytni topish mushkul.

Ey ishq! kamarbasta
Ayt, nechun dilim xasta?
Yo og`u quyib qonga
O`ldururmisan asta?

Shoira qalbi har bir ijodkor singar ishq-muhabbatni yangilay oldi, uning she'riyat gulshani ishq atalmish chechakning o`zga bir iforini dimog`larimizga olib keldi.

3. Janr xususiyatlari va ritmik o`ziga xoslik

She'riyat asrlar davomida sohir san'at sifatida insonning ruhiy ibtidosini kashf etishga intilib kelgan. To'g'rirog'i, poetik ifoda madaniyati odamzod orzu-istaklari, maqsad intilishlarini betakror estetik mezonda baholash garovidir. Shunday ekan, hamisha sir-sinoatlarga oshno nazm tabiatini tahlilhamda tadqiq etish kuchli ma'naviy ehtiyojlarni keltirib chiqaraveradi. Ayni paytda, mazkur istiloh badiiyatiga ta'sir o'tkazadigan ichki va tashqi omillarni ilmiy asosda o'rganish uni idrok etish hamda anglashga zamin hozirlaydi. Lirik tasvirni shakllantiradigan faktorlardan eng muhimi kechinma tabiati bilan chambarchas bog'liq. Tovush, marom, jarangdorlik, ravon ifoda uslubi va musiqiylik kitobxon hissiyotini uyg'otadigan hamda ilk tuyg'u – kechinma tabiatini belgilaydigan sifat ko'rsatkichini iste'fodalaydi. Poetik asarning ohanggi ham uning ajralmas qismi hisoblanadi. Bu usulda aksar hollarda shoir kechinmasi, lirik hayajon marom tabiatiga yuklanadi. Mazkur holatda kechinmaning mazmuniga qarab she'r ohangi tanlanadi. She'riy ohang nutq hodisasi bo'lsa-da, usiz asar mazmunini to'liq tushunish, shoir tuyg'usini his qilish qiyin. She'riy ritm she'r yaratuvchining his va tuyg'ularini o'ziga xos bir tarzda ifodalashga yordam beruvchi nutq hodisasidir. "She'riy nutq haqida gapirganda, avvalo, uning muayyan vaznga solingan ritmga egaligi ta'kidlanadi. Ritm juda keng tushuncha bo'lib, u borliqdagi juda ko'p narsa, hodisalarda kuzatilishi mumkin. Shunga ko'ra, keng ma'noda ritm deganda muayyan bo'laklarning ma'lum vaqt oralig'ida tartibli takrorlanib turishi tushuniladi. Bu ma'nodagi ritm borliqdagi juda ko'p narsa-hodisalarda, jumladan inson organizmida mavjuddir. She'riy nutqning ritmik qurilishini yaxshiroq tasavvur qilish uchun ritmik bo'lak va ritmik vositalarni belgilab olishimiz zarur. Ritmik bo'laklar sifatida bo'g'in (hijo), turoq(rukn), misra va bandni olamiz".⁶ Darhaqiqat, ritm, marom va musiqiylik tuyg'u ta'sirchanligini ta'min etadigan yordamchi vositalardir. Ba'zan mazkur tushunchalar she'r estetik markazini boshqarib, ijodiy alohidalik sifatini namoyon qiladigan poetik unsurga

⁶ Quronov d adabiyotshunoslik nazariyasi 147-bet

aylanadi. Qofiya, tovush, mantiqiy ta'kid va signal joylashuvlari lirik kechinma tabiatida badiiy butunlikka erishadi. Bo'g'inlarning soniga asoslangan barmoq she'r tizimi hisoblanadi. Halima Ahmedova asosan ana shu she'riy tizimda ijod qiladi. Uning ko'plab to'plamlari ana shu tizimda yozilgan she'rlar bilan boyigan desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Meni loydan yasab qazoyi azal,
Dilimga solibmish muqaddas g'azal,
O'zlik tuprog'imga qaytarim mahal,
Maysalar tilini o'rgating menga.⁷

Yuqoridagi misralarning bo'g'inlar soniga e'tibor bersak, har bir misrada bo'g'inlar soni 11 tadan, 6+5 tarzida turoqlanayotganini ko'ramiz. Agar to'rtlikning qofiyalanish tartibiga nazar solsak, u a-a-a-b tarzida qofiyalangan. Halima Ahmedova she'riyatining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri she'r tizimlari, janrlardan foydalanish mahoratiga daxldor. Shoir barmoq she'r tizimida ijod qilsada, qator she'rlarida barmoq she'r tizimi bilan erkin she'r tizimi xususiyatlari aralash holda qo'llangan. She'rlarda misralardagi bo'g'inlar soni, turoq tizimi, qofiya tizimi, bandlar barmoq she'r tizimi doirasidan chiqib, erkin she'r tizimi doirasiga o'tadi. Shoir qalbidan chiqayotgan tuyg'ular o'ziga mos ohang, to'lqin izlaydi, ular barmoq she'r tizimi imkoniyatlariga sig'maydi, oqibat, erkin she'r tizimi xususiyatlaridan ham foydalanishga to'g'ri keladi. Shoiraning "Hali men hech kimni sevmabman"⁸, "O'xshatish" kabi she'rlari barmoq va erkin she'r vaznida yaratilgan.

"Lirik turga mansub asarlarni janrlarga ajratishda ham turlicha prinsiplar mavjudligini ta'kidlash kerak. Adabiyotshunoslikda ulardan ikkitasi — shakl xususiyatlaridan kelib chiqib tasniflash hamda mazmun xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tasniflash kengroq tarqalgan. Jumladan, o'zbek mumtoz adabiyotiga nazar soladigan bo'lsak, unda she'rlarning ko'proq shakl xususiyatlaridan kelib chiqilgan holda janrlarga ajratilishiga guvoh bo'lamiz. Masalan: ruboiy o'zining

⁷ Erk darichasi 28-bet

⁸ Erk darichasi 14-bet

to`rt misradan tashkil topishi, hazaj bahrining axrab va axram shajaralarida yozilishi, ko`proq a-a-b-a (kamroq a-a-a-a) tarzida qofiyalanishi kabi shakl ko`rsatkichlari asosida ajratiladi; tuyuq o`zining to`rt misradan tarkib topishi, ramali musaddasi maqsur vaznida yozilishi, ko`proq a-a-b-a tarzidagi va tajnisli qofiyaga ega bo`lishi bilan xarakterlanadi; qit'a ikki yoki undan ortiq baytdan tarkib topadi, juft misralari o`zaro qofiyalangani holda toq misralari ochiq qoladi, vazn va mazmun jihatlaridan cheklanmaydi, — ko`ramizki, bularning barida shakl xususiyatlari janrni belgilovchi asos bo`lib xizmat qiladi. Bu narsa, ayniqsa, musammatlarda (masnaviy, musallis, murabba' va h), mustazod, tarkibband, tarjeband kabi janrlarda yana ham yorqinroq ko`rinadi. Bulardan ko`rinadiki, o`zbek mumtoz she'riyatida o`zining muayyan shakliiy belgilariga ega bo`lmish turg'un she'riy janrlar yetakchi o`rin tutgan. Shunisi ham borki, badiiy tafakkur taraqqiyotining muayyan bosqichida turg'un janr shakllarining yetakchi mavqe egallashi umuman jahon adabiyotida kuzatiladigan hodisadir. Masalan, Yevropa adabiyotidagi sonet, rondo, rondel, tersina, oktava kabi shakllar fikrimizni dalillash uchun yetarli. Badiiy tafakkur rivojining keyingi bosqichlarida jahon adabiyotida turg'un shakllarni inkor qilish, she'riyatning qat'iy ramkalar doirasidan erkinlik tomon intilishi kabi umumiy tendensiya kuzatiladi. Buning natijasi o`laroq, lirik asarlarni janrlarga ajratishda endilikda shakl xususiyatlaridan, aniqrog`i, tashqi shakldan kelib chiqish imkoni yo`q. Shuningdek, lirikani janrlarga ajratishda faqat mazmundan kelib chiqish (ishqiy lirika, falsafiy lirika, siyosiy lirika qabilida ajratish) ham maqbul emas. Boz ustiga, bu holda janr mohiyatini buzib tushungan bo`lib chiqiladi. Zero, janr ma'lum bir mazmunni shakllantirish va ifodalashga xizmat qiluvchi shakl hodisasi ekanligi ayon haqiqatdir.

Ma'lumki, klassik she'riyatimizda faol ishlatilgan ayrim turg'un janrlar (g`azal, ruboiy, qasida va b.), shuningdek, xorijiy adabiyotlardan o`zlashgan turg'un she'riy shakllar (sonet, rondo, tanka, xokku va b.) hozirgi she'riyatda ham oz bo`lsa-da qo`llanadi. Buning ustiga, adabiyotshunos faqat hozirgi adabiyotni o`rganish bilan cheklanmaydi, u, ayniqsa, nazariy masalalarni o`rganish va xulosalar chiqarish

jarayonida umuman jahon adabiyoti materialiga tayanadi. Shunga ko`ra, o`zbek she'riyatida qo`llanilgan she'riy janrlarni, bizningcha, tubandagicha janr turlariga ajratish mumkin:

1) shakl xususiyatlariga ko`ra (bandning tarkiblanishi, qofiyalanish tartibi va h.) ajraluvchi janrlar: g`azal, mustazod, tuyuq, ruboiy, tarjiband, tarkibband, musammatlar;

2) anjumanga mo`ljallangan janrlar: nazira, badiha, muammo, chiston (lug`z);

3) xorijiy adabiyotlardan o`zlashgan janrlar: sonet, xokku, tanka, oktava, oq she'r, epigramma va h.;

4) hozirgi she'riyat janrlari: avtopsixologik lirika (uning ko`rinishlari sifatida meditatif lirika va intellektual lirika), ijroviy lirika, tavsifiy lirika, voqeaband lirika.

Keltirilgan janrlarning aksariyati hozirgi o`zbek she'riyatida qo`llanadi, biroq ularning faollik darajasi turlicha ekanligini e'tiborda tutish kerak.”⁹

Halima Ahmedovanning e`lon qilingan to`plamlarida, hamda turli jurnallarning she'riyat bo`limidan joy egallagan ijod namunalari turli janr namunalari berilgan. Musallas janri – har bandi uch misradan iborat she`r. Shoirning “Qaldirg`och” she`ri shunday janrda yozilgan. Shoir she`rlarining ko`p qismi to`rtlik janrida yozilgan. Ularda qofiya tizimining turli shakllaridan foydalanilgan: a-b-a-b, a-b-v-a, a-a-b-a. to`rtliklar ichida a-a-a-v shakli ham borki, bu mumtoz adabiyotdagi murabba shaklidir. Murabba shoir to`rtliklarining ko`p qismini, eng yaxshi she`rlarini tashkil qiladi. “Men ketyapman...”, “Qismat afsonadur...” kabi she`rlari murabba shaklida yaratilgan. Biroq shoiraning ba`zi to`rtlik shaklida yozilgan she`rlari, jumladan “Ketasan...” she`ri to`rtlik shaklida yaratilgan bo`lsa-da, so`nggi bandi besh misradan iborat.

Ketasan...

Bulutlar-osmonda lahzalik qabr,

Bo`g`zimda kuyar so`z- ming yillik asir,

⁹ D.Quronov 201-bet

Izlaring jimgina yuvadi yomg'ir.

Ketasan...¹⁰

Janrning temir qonunlarini buzish shoira­ning ko'p she'rlarida uchraydi. Bu band oldingi bandlardagi dardni, alamni yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. Boshqa to'rtligida oxirgi misraga she'rning umumiy ma'nosini ochib berishga xizmat qiluvchi misra qo'shadiki, bu ham ta'sirni yanada kuchaytirishga xizmat qiladi:

Qaytaman quyoshning ovozi bilan,

Kuylagan bog'larning taronasida.

Va mangu yashayman hayotdan baland,

Xudoning eng xushbaxt afsonasida.

Men bilmayman qancha masofa qoldi...¹¹

Shoira muxammaslari shakl jihatidan besh misradan iborat bo'lsada, mumtoz adabiyotdagi muxammaslar qofiya tizimiga mos kelmaydi. U "Ey tong..."¹² she'rda har bandni besh misradan iborat qilsa ham uning so'nggi bandining qofiya tizimi v-v-a-b shaklida berilgan. "Oyto'ldi marsiyasi" deb nomlangan beshligida: a-a-a-b-b qofiya tizimini qo'llagan. "Jim yotgan yuraging uyg'otgin bo'zlab" she'rining birinchi, ikkinchi, uchinchi bandlari beshlik bo'lib, qofiya tizimi: a-b-a-b-v shaklida berilgan. So'nggi band esa 6 misrali banddan iboratdir. Demak, shoira muxammasning besh misrasini saqlagan holda tuyg'ulari zarbiga mos holda qofiya tizimlarini qo'llay bergan. Bunday misralarda barmoq tizimidagi bo'g'inlar, turoqlar, qofiya tizimlari erkin bo'lib, ko'proq erkin she'r vaznini yodga soladi. Boshqa janrlarda ham shunday holatni kuzatish mumkin.

Yuqorida ko'rilgan bir qator janrlar asosan shaklga ko'ra ajratiluvchi mumtoz an'analarga rioya qiluvchi lirik janrlar hisoblanadi. "Hozirgi she'riyat janlari"¹³ nuqtayi nazaridan tahlil qiladigan bo'lsak shoira ijodida ularning har biriga betakror

¹⁰ Erk darichasi 63-bet

¹¹ Nigoh qiblası 34-bet

¹² Nigoh qiblası 87-b

¹³ D.quronov

misollarni topishimiz mumkin. “Hozirgi she'riyatda qo'llaniluvchi janrlarni yuqoridagicha turlarga ajratar ekanmiz, biz ularning shakl xususiyatlariga, biroq, mumtoz adabiyotdagidan farqli o'laroq, ichki shakl xususiyatlariga tayanamiz. Jumladan, avtopsixologik she'r deganda biz lirik qahramon va shoir shaxsiyati munosabatidan kelib chiqamiz.”¹⁴

Sizga ishq tilayman yo'llari uzun,
Dardlari mukambar, xayolday oppoq.
Oydin tushingizga farishta kirsin
Lablari qon yanglig', sochlari bayroq.
Kelmang bir ishq bo'lsa, undan ham to'ydim,
Loqayd ko'zingizni ko'rib dunyoda
Va lekin bilingki, har qanday suluv
Sizni sevolmaydi mendan ziyoda.
Kelmang...

Parcha medidativ lirikaga kiruvchi ajoyib ijod namunasi hisoblanadi. Avtopsixologik she'rlarning bir ko'rinishi sifatida olingan medidativ lirikaning predmeti shoir ko'ngli, bunda shoir ko'nglidan kechayotgan oniy kechinmalar, doim ham mantiqiy idrok etish va tushuntirish mushkul tuyg'ular ifodalanadi. Yuqorida berilgan she'riy parchada rasvirlanayotgan dard lirik qahramonning oniy tuyg'ulari hisoblanadi. Umuman olganda, she'riy asarlarning deyarli barchasi o'quvchi uchun hozir sodir bo'layotgan his-kechinmani yuqtiradi, lirik qahramon ko'ngil dardi o'quvchiga lahzaning o'zidayoq o'tib qoladi.

“Yuqorida aytganimizdek, ijroviy lirikada shoir o'zga shaxs ruhiyatiga kirib, o'zganing tilidan mushohada yuritadi, natijada o'sha o'zga shaxs she'rning lirik qahramoniga aylanadi. Bu haqda yuqoridagilarga shuni qo'shimcha qilish joizki, XX asrning 60-yillaridan boshlab, ayniqsa, 70—80-yillar she'riyatida tarixiy shaxslar tilidan yozilgan ijroviy she'rlarning ko'payishi kuzatiladi. Bu narsa, bir

¹⁴ O'sha kitob

tarafdan, milliy o`zlikni anglashga intilishning boshlangani bilan, ikkinchi tarafdan, bu xil she'rlarning "so`z aytish"ga nisbatan kengroq imkoniyat yaratishi bilan izohlanishi mumkin."¹⁵ H.Ahmedova ham ushbu janrda qator she'riy asarlar yaratgan, "Usmon Nosir", "Pahlavon Mahmud tilidan", "Furo`g`i Farruhzoda" kabi she'rlari shular jumlasidandir.

Bag`rim mayxonadur, mastonaman men,
May ichmay dunyoda devonaman men.

Hayvonvash ilkidin mehr kutmadim,
Alardin ming kuygan so`zonaman men.

Berilgan parcha shoiraaning "Umid soyasi" to`plamidan joy olgan "Pahlavon Mahmud tilidan" nomli she'ridir. She'r ijroviy lirika janrida yozilgan bo`lib, to`liq holda ijodkor o`zga shaxs (Pahlavon Mahmud)ga "aylanib" fikrlaydi va ana shunday gapiradi. Ijodkorning mazkur she'rdagi yutuqlaridan yana biri shundagi unda davr kaloritini beruvchi so`zlar ham qo`llanadiki, so`zlarning bari huddi Pahlavon Mahmud tilidan so`zlanayotganiga hech qanday shubha uyg`onmaydi. O`zga shaxs ruhiyati ijodkor tomonidan shunday mohirona tasvirlanadiki, o`quvchi oradagi "vositachi"ni payqamaydi ham.

"Hozirgi o`zbek she'riyatida tavsifiy lirika namunalari ham ancha keng tarqalgan. Tavsifiy lirikada epik unsurlar salmog`i nisbatan ustun, biroq tavsiflanayotgan, tasvirlanayotgan narsalar zamirida hamisha lirik meditatsiya mavjud. Boshqacha aytsak, tavsiflanayotgan yoki tasvirlanayotgan narsa-hodisalar, tabiat manzaralarida shoir o`z kechinmalarini, o`y-fikrlarini suratlantiradi".¹⁶ Shoira ijodida tavsifiy lirika janrida yozilgan she'rlar bisyor.

Bir og`ir tun cho`kar, o`rkachlari xun
Tosh qotar bog`larning qorong`u sabri.
Qaysidir xazonning ostida nogoh,

¹⁵ D.quronov

¹⁶ D.q 203-b

Titraydi umidning xokisor qabri.
Olis yod uyg`onar tashlandiq dilda,
Ko`chalarda kezar dilpora nazm.
O`tmishning qonagan qorachig`ida-
Ochiq mozorlarda uxlar Xorazm.

H.Amedova tabiatni qalb tarjimoniga aylantira olgan ijodkor. Insoniy tuyg`ularni u tabiat hodisalariga shunday mahorat bilan singdiradiki, tabiat hodisalari insoniy qalb kechinmalari haqida so`zlaydi. Yuqorida berilgan parchada ham shoira Xorazmdagi tun manzarasini, kech tushish holatini tavsiflab beradi. Ammo, tavsif faqatgina tunni emas u umaman Xorazm tarixiga ataladi. Lirik qahramon tun tasviridan Xorazm kechmishini eslay boshlaydi, qanchadan qancha insonning jonsiz tanasiga makon bo`lgan diyor uning qalbini larzaga soladi, ana shu oniy kechinma she`rda o`z ifodasini topadi.

X U L O S A

Bugungi o'zbek she'riyati o'z taraqqiyotining muhim hayotiy hodisalarni tasvirlash va dolzarb muammolarni aks ettirishdan ko'ngil manzaralarini chizish va ruhiy holatlarni moddiylashtirish bosqichiga o'tdi. Odamni bilish olamni bilishdan mushkulroq ekanligi anglandi. Binobarin, shu xil xossalarga ega odamning g'oyat mukarram zotligi tuydirildi. She'riyat tom ma'noda qalb ko'zgusiga aylantirildi. Hozirgi adabiy jarayonning yetakchi vakilalaridan biri bu Halima Ahmedovadir. Bu badiiy hodisaga istiqlol she'riyati degan nom ozodlikni orzulagani, istiqlol davrida yaratilgani, millat ahlini ozodlikka undagani, mustaqillikni madh qilgani, egaman kishilarning tuyg'ularini aks ettirgani uchungina emas, balki birinchi navbatda, she'rxonga dunyoni o'rganish bilan birga o'zini, o'z ko'nligini taftish etish lozimligini anglatishga uringani uchun ham berilgan atama ekanligini ta'kidlash joiz. Chunki istiqlol huquqiy atama bo'lishi bilan birgalikda ruhoniylar ma'naviy tushuncha hamdir. Ya'ni mutsaqillik kishining tabiatiga ko'chsa, uning ma'naviy sifatiga aylansagina, ijtimoiy, siyosiy va huquqiy hodisa sifatida ham qiymat kasb etadi. Mustaqillik hissi qalblarimizga kirib bordi. Qalb oynasi-adabiyot ham mustaqil kuylay boshladi, she'riyatimiz "ko'ngil kuychisi"ga aylandi. Hozirgi adabiy jarayonning yetakchi ijodkorlaridan biri Halima Ahmedovadir. Mazkur bitiruv malakaviy ishi ijodkor she'riyatini tadqiq etishga bag'ishlandi.

Halima Ahmedova yaratgan poetik obrazlar orasida kuz obrazi alohida o'rin tutadi. Shoiraning bir qator she'rlarida kuz o'zining turli ma'no qirraari ila "jilvalanadi". Yashillikning sog'inchga aylanishi, maysalar qonidagi hayajonning tinishi, daraxtlarning yelkasida og'ir dardni ko'tarib titrashi, yoshlikning o'tishi, kuz fasli-keksalikning beso'rov kirib kelishining ramziy ifodasi bo'lib xizmat qiladi. Agar kuzning kelishini yuqoridagi badiiy ko'chimlarsiz ifodalasak, she'r oddiy so'zlarning o'zaro bog'lanishidan iborat bo'lib qoladi. So'zlarni she'r sifatida his-tuyg'u bilan yo'g'rilgan holda ushlab turuvchi poetik obrazlar hisoblanadi:

Yashillik aylanib borar sog`inchga,
Maysalar qoniga tinar hayajon.
Yelkasida ulkan dardni opichlab,
Daraxtlar titraydi g`amgin bezabon.¹⁷

Tabiatda fasllar almashinuvi bu tabiiy va qonuniy hodisadir. Ammo shoira ushbu jarayonni inson hayitiga nisbatan tatbiq etganda tabiatdagi har bir narsaga tirik insonga xos dard-alam, sevinch va qayg`u ko`zi bilan yondashadi. Tabiat hodisalari o`zicha emas, balki o`zga ma`noda berilsa unga inson ruhi, xarakteri singdirilsa, shuning oqibatida she`rga ko`chma obrazlar kirib keladi. Yam-yashil dunyoni tashlab mayus ketib borayotgan quyosh inson ruhiyatida yuz berayotgan evrilishlarni ifodalaydi. Har bir narsada yuz berayotgan bunday o`zgarishlar sababi oltin yaproqlarini sanab turgan kuz ekanligi quyidagi misralarda nozik ifodalangan:

Yam-yashil dunyoni hijronga tashlab,
Quyosh ketib borar o`ychan va mayus.
Qo`rquv ichra, asta to`kilayotgan,
Sariq yaproqlarini sanab turar kuz.

Poetik asoslangan obrazlar kishi ruhiyatida yuz berayotgan o`zgarishlarni, his-tuyg`u ifodasiga o`rab beradi. Agar yuqoridagi satrlar kuz kelib quyoshning tafti pasaydi, barglar to`kilib, daraxtlarda sanoqli qoldi, tarzida ifodalansa, she`rdagi obrazlilik barham topadi. Obrazli fikrlashga, obrazli tasavvurga asoslangan shoira idroki bunga yo`l qo`ymaydi.

Shoira ijodida yetakchi poetik obrazlardan biri bo`lgan kuz quyidagi she`rda ham o`zining ajib jilvasi ila jilolanadi:

Bog`larning tushida yam-yashil dunyo,
Quyosh aytolmaydi eng so`nggi so`zni.
Barcha seplarini sochib turnalar,
Olib qaytmoqdalar qariqiz-kuzni.

¹⁷ Tunggi marvarid gullar 33-bet

Yozdan keyin kuzning, kuzdan so`ng esa qishning tabiat quchog`iga mehmon bo`lib kirib kelishi mutlaqo qonuniy hodisadir. Ayni mana shu jarayonni shoira bog`larning tushlariga aylangan yashillik, quyoshning eng so`nggi so`zini aytolmasdan (juda tez fursatda) botishi, turnalarning qanotlarini ya`ni “seplarini” yoygan holda uchib ketishi orqali kuzning ham o`z o`rnini qishga bo`shatayotgani juda go`zal tasviriy ifodalar bilan ko`z oldimizda jonlantira olgan. Kuz – qish va bahorning chegarasi. Agar qishga biroz shavqatsizlik bo`lmasa, kuz ranginlik va bir xillik, muhabbat va yolg`izlik orasidagi jarayondek tuyulaveradi. Xuddiki bahorning qaynoq taftini sog`inga dillar kuzga nola qiladi. Shu boisdan quyida keltiriladigan she`rni shoira “Kuzning so`nggi istagi” deb nomlaydi. Kech kuzda borliqni qoplab olgan tuman pardasidaraxtlarni yashirishga intilayotgan qishning nafasi edi. Kuzning so`nggi nafaslarini yorqin tasavvur etish uchun shoira tuman obraziga murojaat qiladi. Bu esa horg`in kuz fasli bilan vidolashayotgan inson ruhiyatining timsolidir.

A.Sharopov yozganidek: “Tabiat hodisalari o`zicha emas, balki o`zga ma`noda berilsa, unga inson ruhi, xarakteri singdirilsa, u ramzga aylanadi. Albatta, bunda ramz badiiylkdan mahrum bo`lib qolmasligi kerak”.¹⁸ Darhaqiqat, ijodkor tomonidan qo`llanilgan poetik obrazlar tabiatdan olinsa va ularga singdirilgan mazmun chuqur ma`noli bo`lsa, inson ruhiyati va tabiatdagi o`xshashlik bir-birini boyitadi va to`ldiradi. O`zigacha bo`lgan she`riyat an`analarini ijodiy davom ettirgan va rivojlantirgan shoirlarimizdan biri Ogahiy g`azallaridan birida shunday yozadi:

Oqardi chun boshing, uz, Ogahiy, o`zdin umidingkim,

Xazon yetgan nishonidur qirov tushsa gar bog` uzra.

“Xazon yetgan nishonidur qirov tushsa gar bog` uzra” misrasi go`yo oddiy tasvir bo`lib, kuzning kelishidan darak berayotganga o`xshaydi. Aslida esa uning vazifasi boshqacharoq. Ya`ni u “bosh oqarishi” bilan bog`lanib, nisbatan keng

¹⁸ Sharopov.A. Olamlar ichra olamlar. Toshkent:G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti,1978. 109-bet.

ma'no tashuvchi obrazga aylanganki, bu xususiyat xazonni umrning oxiri, qarilikning ramzi darajasiga ko'taradi.

Shoiraning "Chig'atoy" nomli she'ri shunday misralar bilan boshlanadi:

Kuzning ilk shamoli yuzlarim o'pdi,
Nedir aytmoqchiday qiynaldi Xazon.
Umrinni sanagan ayg'oqchi cholday,
Meni kuzatardi sokin bargrezon.

She'rning nomini o'ziyoq o'quvchi qalbni o'ylantirib qo'yadi. Nega "Chig'atoy"? Kuz shamoli, kuz tasviri, umuman xazonning bu nomga qanday aloqasi bor? Kuz fasli inson umrining keksalik, sarhisob davriga o'xshatiladi. Keksalik eshik qoqib kelar ekan yuzdagi porloqlik o'z o'rnini so'lginlikka bo'shata boshlaydi. Yengilgina ajinlar ham yuzga "qo'nib boradi". She'rda keltirilgan "kuzning ilk shamoli" yuzlarni "o'pishi" ayni mana shu jarayonni obrazli ifodalanganidir. Ushbu o'rinda shamol poetik obrazining qo'llanishi mazmunni anglashga turtki vazifasini o'taydi. Lirik qahramon yuzlarini o'pgan shamol xazonlarni ham o'z kuyiga jo'r bo'lishga undaydi. Xazonlar nenidir aytmoq istaydilar-u shivirlashdan nariga o'tolmaydilar. Kuz tilga olinar ekan, u bilan birga xazon yaproqlari ko'z oldimizga keladi. Chunki, xazon kuz bilan birga bahor, yoz ya'ni inson umrining yoshlik chog'larini ham yodga soladi. Xazon yil fasllari almashinuvi natijasidir. Faqat xazonning ibtidosi bahor, intihosi kuzga to'g'ri keladi. Xazonga aylangan barglar asta-asta daraxt shoxlaridan uzilar ekan, lirik qahramonning ko'z oldidan birin-ketin o'tib borayotgan kunlari, umr sanog'i kabi o'ta boshlaydi.

Lirik tasvirni shakllantiradigan faktorlardan eng muhimi kechinma tabiati bilan chambarchas bog'liq. Tovush, marom, jarangdorlik, ravon ifoda uslubi va musiqiylik kitobxon hissiyotini uyg'otadigan hamda ilk tuyg'u – kechinma tabiatini belgilaydigan sifat ko'rsatkichini iste'fodalaydi. Poetik asarning ohanggi ham uning ajralmas qismi hisoblanadi. Bu usulda aksar hollarda shoir kechinmasi, lirik hayajon marom tabiatiga yuklanadi. Mazkur holatda kechinmaning mazmuniga qarab she'r

ohangi tanlanadi. She'riy ohang nutq hodisasi bo'lsa-da, usiz asar mazmunini to'liq tushunish, shoir tuyg'usini his qilish qiyin. She'riy ritm she'r yaratuvchining his va tuyg'ularini o'ziga xos bir tarzda ifodalashga yordam beruvchi nutq hodisasidir. Darhaqiqat, ritm, marom va musiqiylik tuyg'u ta'sirchanligini ta'min etadigan yordamchi vositalardir. Ba'zan mazkur tushunchalar she'r estetik markazini boshqarib, ijodiy alohidalik sifatini namoyon qiladigan poetik unsurga aylanadi. Qofiya, tovush, mantiqiy ta'kid va signal joylashuvlari lirik kechinma tabiatida badiiy butunlikka erishadi. Bo'g'inlarning soniga asoslangan barmoq she'r tizimi hisoblanadi. Halima Ahmedova asosan ana shu she'riy tizimda ijod qiladi. Uning ko'plab to'plamlari ana shu tizimda yozilgan she'rlar bilan boyigan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Shoiri ijodi hozirgi she'riyat janrlari bilan bir qatorda mumtoz adabiy janrlar bilan ham boyigan. Uning ijodini o'rganar ekanmiz g'azal, muhammas, musallas, masnaviy kabi janrlarga ham murojaat qilganini guvohi bo'lamiz. Biz bu she'rlarning har birida shoiri lirik qahramon ahvol-ruhiyatini, uning botinidagi ichki kechinmalarni tabiat bilan hamnafas holda, tabiatga qiyoslash va o'xshatishlar bilan ifoda etayotganing guvohi bo'lamiz. "Go'zal ifoda dunyoda hech bir hodisa yo'qki, u shaxsan sening hayotingga aloqasiz bo'lsa, degan haqiqatni bizga yetkazadi¹⁹" – deb yozadi adabiyotshunos olim, yozuvchi Ulug'bek Hamdam. Ana shunday go'zal ifodalarni tabiatdan ola bilish, o'z o'rnida qo'llay bilishning o'zi ham katta mahorat. Ana shu mahoratni biz shoiri ijodida ko'rdik.

Biz tayyorlagan bitiruv malakaviy ishida ham ijodkor yaratgan asarlarni aynan mana shu jihatlariga e'tibor bergan holda tadqiq-u tahlil qilishga harakat qildik.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, bitiruv malakaviy ishning mavzusi keng bo'lib, yana ham kattaroq darajadagi ilmiy yondashuvni talab etadi. Shu ma'noda bajarilgan ishni katta ilmiy izlanishlar oldidagi bir urinish ekanligini ta'kidlash joiz.

¹⁹Ulug'bek Hamdam Yangi o'zbek she'riyati. T.: Adib n. 2012, 4 b.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. Istiqlol va ma'naviyat.-c T.:“O`zbekiston”, 1994.
2. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo`lida. – T.: “O`zbekiston”, 1998.
3. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: O`zbekiston, 2000.
4. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo`lida xizmat qilish-eng oliy saodatdir.-Toshkent.:O`zbekiston, 2015.
5. Karimov I.A.Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.–Toshkent.:Ma'naviyat, 2008.
6. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatga, kelajakka e'tibor./Xalq so'zi.-2009.-3 iyul.
7. Quronov.D, Mamajonov.Z, Sheraliyeva.M. Adabiyotshunoslik lug'ati. –
8. T.:Akademnashr, 2010.
9. Quronov.D. Adabiyotshunoslikka kirish.- Andijon.: Hayot, 2002.
- 10.Adabiy tur va janrlar. 1-jild. T., 1991.
- 11.Aliev A. Istiqlol va adabiy meros T., “O`zbekiston” 1997
- 12.Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari.-T., O`zbekiston, 2002.
- 13.Yo`ldoshev Q, Yoniq so'z T., “Yangi asr avlodi,” 2006.
- 14.Solijonov Y. Hozirgi o`zbek lirikasi. O`quv-uslubiy qo`llanma, 2009.
- 15.Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to`plami (20 jildlik), 7-12 jildlar, Toshkent, 1991-1996
- 16.H.Ahmedova “Erk darichasi” Adabiyot va san'at. 1996
- 17.H.Ahmedova “Tiyramoh” Adabiyot va san'at. 2005
- 18.H.Ahmedova “Nigoh qiblası” Adabiyoti va san'at. 2011
- 19.H.Ahmedova “Afsun” Adabiyot va san'at. 2013
- 20.Abdulla Ulug'ov “Hur gulsan, hayot” Davron.uz
- 21.Rahmon Sh. Uyg'oq tog'lar. –Toshkent, 1986.
- 22.Jumaboyeva J. Lirik she'rda ruhiyat qudrati. O`zbek tili va adabiyoti. 1999.
№ 2. –B. 41-44.

23. Jumaboyeva J. Lirik qahramon ruhiy dunyosining teran manzaralari. O'zbek tili va adabiyoti. 1998. №6.-B. 16-20.
24. Saidakbar Mahsumxonov. She'riyatda barg obrazi. O'zbek tili va adabiyoti. 2004. №6.-B. 51-53.
25. Hamdamov U. Yangi o'zbek she'riyati. –Toshkent: Adib, 2012.
26. Qo'chqorova M. Badiiy so`z va ruhiyat manzaralari. - T.: Muharrir, 2011.
27. Ziyonet.uz
28. Davron.uz
29. Kutubxona. uz.
30. Pedagog.uz
31. Muhokama.uz
32. Google.com